

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQA TA'LIM KAFEDRASI


Safarova Dilbar Nurullayevnaning

5111100 - Musiqiy ta'lim yo'nalish bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

Mavzu: **Musiqqa mashg'ulotlarida o'zbek xalq cholg'ulari
tarixini o'rganish**



Ilmiy rahbar: p.f.n.dosent
B.X.Madrimov

Buxoro-2017

MUNDARIJA

KIRISH4-7

I-BOB. “O`RTA OSIYO XUDUDIDA IJROCHILIK SAN`ATINING PAYDO BO`LGAN DAVRI TARAQQIYOTI

1.1. O`zbek xalq milliy cholg`ularida ijrochilik san`atining rivojlanishi
tarixi.....8-26

1.2. 1917-1945- yillarda o`zbek xalq cholg`ulari ijrochilik san`atining
taraqqiyoti.....27-33

II-BOB MUSIQA MASHG`ULOTLARIDA O`ZBEK XALQ CHOLG`ULARINI TAKOMILLASHTIRISH SAN`ATI

2.1. 1945-1960- yillarda o`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik san`ati.....34-50

2.2. Zamonaviy chang cholg`usi ijrochiligining shakllanishi.....51-58

XULOSA.....59-60

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....61-62

Musiqqa mashg'ulotlarida o'zbek xalq cholg'ulari tarixini o'rganish

Reja

KIRISH .

I-BOB. “O`RTA OSIYO XUDUDIDA IJROCHILIK SAN`ATINING PAYDO BO`LGAN DAVRI TARAQQIYOTI.

- 1.1. O`zbek xalq milliy cholg'ularida ijrochilik san`atining rivojlanishi tarixi.
- 1.2. 1917-1945- yillarda o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilik san`atining taraqqiyoti.

II-BOB MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA O`ZBEK XALQ CHOLG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH SAN`ATI

- 2.1. 1945-1960- yillarda o`zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san`ati.
- 2.2. Zamonaviy chang cholg'usi ijrochiligining shakllanishi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

**“... bugungi kunda musiqa san’ati
navqiron avlodimizning yuksak
ma’naviyat ruhida kamol topishida
boshqa san’at turlariga qaraganda
ko`proq va kuchliroq ta’sir
ko`rsatmoqda”**

**Islom Karimov “Yuksak
ma’naviyat-yengilmas kuch”**

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi: O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, hamma sohalarda rivojlanish sari yangi-yangi va salmoqli ishlar qilina boshlandi. Musiqiy merosimizning uzoq o`tmishini yanada chuqurroq o`rganish sohasida ham unumli ishlar amalgam oshirildi.

Xususan, musiqiy san’atimiz tarixini, uning buyuk namoyondalari tarixini har tomonlama o`rganish va xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi.

“Respublikamizda musiqiy ta’limning madaniyat va san’at o`quv yurtlarida faoliyatni yaxshilash to`g`risida” (1996-yil 31-dekabr), “Kadrlar tayyorlash dastur tuzish bo`yicha”, (1997-yil 10-mart), “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to`g`risida” (1997-yil 6-oktabr), “Ta’lim to`g`risida” (1997-yil 27-avgust) farmon va qonunlar o`quv

tarbiya jarayoni sifatini jahon andozalari darajasiga ko'tarish, yoshlarga milliy uyg'onish va umuminsoniy qadriyatlarini idrok etish asosida vatanga mehr-muhabbat, mustaqillik ideallariga sadoqat ruhida tarbiyalash davrimizning doilzab vazifasidir.

Mavzuning maqsadi: Musiqa madaniyati o`quv fanining mazmuniga bo`lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl', orkestr va simfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy sahna asarlari, xalq va professional musiqasi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o`zbek xalq cholg'u asboblarini bilishni mashhur o`zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, ustozona, mumtoz musiqa, Sharq xalqlari musiqasi, qardosh va jahon xalqlari musiqasi, ularning taniqli namoyandalari, maqom va shashmaqom, uning mashhur ijrochilari faoliyati o`zbek musiqasida mahalliy uslublar va uning mashhur ijrochilari, o`zbek milliy musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy Estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o`zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o`quv faoliyatlarida nazariy ham amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo`lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash va kuylash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o`rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o`rganish va o`zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O`zbek xalq

musiqasi o`zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh va jahon xalqlari kompozitorlari musiqiy asrlaridan namunalar, shashmaqom sh'balari, mahalliy musiqa uslublaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo`lib kuylash faoliyati o`quvchilarni musiqiy o`quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo`lib kuylash jarayonida o`quvchi o`z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo`rnavozlik qilishga intiladi.

O`zbek xalqlari, o`zbek bastakorlari va kompozitorlari qo`shiqlari, jahon va qardosh xalqlari kompozitorlari qo`shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid fol'klar qo`shiqlari, maqom aytim yo`llaridan namunalar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg`uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo`lmasin, berilgan mavzudagi asar o`rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzulishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo`ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o`rganishdan iborat bo`lmay, balki o`quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'ati), intervallar, al'tirasiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va janrlari, major va minor ladi haqida tushuncha beriladi.

Musiqa tinglash yakkanavoz va jo`rnavozlikni ajrata bilish, ansambl' va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O`zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash va boshqalar.

Mavzuning tadqiqot ob'ekti: Ashula ijrochiligi, sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo`lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa: bolalar kuy va qo`shiqlari, ommaviy xalq kuy-qo`shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, garmoniya, ritm-usul, sur`at, o`lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minor ladlarini farqlay bilish. Oddiy musiqa shakllari: bir qismli, ikki qismli va uch qismli musiqa shakllari. Kupletli, ronda, sonata, syutalar haqida tushunchaga ega bo`lish. Musiqiy janrlar: ashula, raqs. Val's, marsh, opera, balet, musiqiy drama, cholg`u musiqasi, cantata, kvartet, simfoniya kabi janrlarni farqlay olish. Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl`, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo`lish. Xor ijrochiligi: bolalar, ayollar, erkaklar, xalq xorlari va davlat xorlari ijrochiligi bilan tanishish. Partiya ovozlari: saprana, al`t, tenor, bas ovozlarni farqlay olish.

Mavzuning ilmiyligi: O`zbekistonda ta`lim-tarbiyani isloh qilishda ajdodlar merosidan foydalanish ayniqsa, insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adalot haqiqat ezgulik mehnatsevarlik kabi yuksak g`oyalar urug`ini sepgan zot payg`ambar Zardusht yaratgan "Avesto" kitobi, A.N.Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy bobomiz qarashlaridan tashqari A.Yassaviy, A.G`ijduvoniy, B.Naqshband, N.Kubro, Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta`limotlarida aks etgan komil inson g`oyalaridan, adolat haqidagi qarashlaridan foydalanishimiz lozim. Ustoz san`atkorlarimiz, allomalarimiz o`gitlariga amal qilgan holda vatanimiz qadriyatlarini, boy madaniyatini, ilmiy-madaniy bilimlarini egallashga bo`lgan talabalarni shakllantirish ularni musiqiy va ilmiy dunyoqarashini boyitishdan iboratdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimiz o`zbek xalq musiqasi, cholg`u asboblari va janr boyligi, maqomlari, mumtoz va zamonaviy qo`shiqlarni taqqoslab ko`rsatish hamda maktab o`quvchilarini qadimiy san`at bilan tanishtirish nazarda tutilgan. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi qonuni "Kadrlar tayyorlash

milliy dasturi” talablari asosida ta’lim tizimida barcha fanlar qatori musiqa predmetining o`qitilishi tubdan yangilandi.

I-BOB. “O`RTA OSIYO XUDUDIDA IJROCHILIK SAN`ATINING PAYDO BO`LGAN DAVRI TARAQQIYOTI.

1.1. O`zbek xalq milliy cholg`ularida ijrochilik san`atining rivojlanishi tarixi.

Xalq cholg`ulari uzoq o`tmishda paydo bo`lgan. Ma`lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg`ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg`ular paydo bo`lgan. Bu tushunarli. Chunki, eng qadimgi mehnat qo`shiqlari ishning retmik tuzilishi bilan bevosita bog`liq.

Keyin shovqunli cholg`ular paydo bo`lgan. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta`kidladilar, shovqinli cholg`ular ta`sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o`ziga xos, takrorlanmas, go`zal holatni vijudga keltirar edi.

Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan sunray, hushtak, yana biroz o`tgach esa nay (bo`ylama, ko`ndalang, ko`p yo`lli), naysimon hushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar (arfa, lira) va kifaralar yasaldi. Vaqt o`tib u cholg`ular yanada takomillashib (ko`p yo`lli, shuningdek zamonaviy ko`p teshikli) naylar yuzaga keldi. So`ngroq torli-mizroblar va torli-kamonchali musiqa cholg`ulari paydo bo`ldi. Ulardan saroy a`yonlarining marosimlarida, harbiy yurushlarida foydalanildi.

Qadimgi sharq madaniyati quchog`ida o`zbek xalq cholg`ulari shakllandi. Ular ko`p asirlik taraqqiyot davomida o`ziga xos xususiyatlarini tovush tusini saqlab qoldi. O`ziga xos tuzilishi tujayli nay, sunray, tanbur, dutor, rubob, g`ijjak, qobuzlar an`anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Eramizdan avvalgi III asr o`rtalarida O`rta Osiyoning g`arbiy viloyatlarida Parfiyon (a), sharqida esa Grek-Baqtriya davlatlari tashkil topdi. Eramizning I asrida O`rta Osiyoning janubiy qismida qudratli Kushon shoxligi tarkib topdi.

Mahalliy Kushon sulolasi hokimiyati ostida bir qancha davlatlar birlashdi, buning natijasi o`laroq shaharlar yuksaldi, madaniyat gullab-yashnadi, yangi-yangi musiqa cholg`ularining yaratilishiga shart-sharoit yuzaga keldi.

Quldorlik tizimi davrida Marokand, Niso, Tuproqqal`a, Termiz va boshqa shaharlar mavjud edi. Ushbu shaharlar hududida olib borilgan qazilma ishlar chog`ida badiiy hunarmandchilik buyumlari, turli xil cholg`ularning tasvirlari topiladi. Quldorlik jamiyati O`rta Osiyo xalqlari madaniyati rivojida muhim bosqich bo`ladi. Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga cholg`ular ham takomillashadi.

Eramizning IV asridan boshlab O`rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarida o`zgarish yuz berdi: quldorlik tuzimi o`rnini asta sekin feodal tuzimi egallay boshladi. IV asirning 60-yillarida O`rta Osiyo turkimlarining kirib kelishi natijasida turkey va sharqiy Eron xalqlarining aralashuvi tobora kuchayib, natijasida o`zbek va boshqa O`rta Osiyo xalqlari shakllandi. Shu davrdan boshlab O`rta Osiyo hududi Turkiston (turklari yashaydigan joy) nomini oldi.

Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstoy, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida O`rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholgularini o`rganishda qimmatli malumotlarga ega bo`lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg`u, hozirgi doiraga o`xshash do`mbira va shu singari cholg`ularni chalayotgan mashshoqlarni tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqal`a, Ayratam (Ayratam friziy deb ataladi) kabi shaharlardan topilgan spool idishlardagi mashshoq haykalchalardir. Ulardan turli xil musiqa asboblari: lyutnya, tanbur, rubobsimon cholg`u, qonun, ud, rud, shemane (musiqor), chag`ona, chiltor, nay, burg`u sunray karnay, doirasimon sholg`ularda mashq qilishlari tasvirlangan.

Xalq cholg`ulari O`rta Osiyo aholisining turmishi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg`ular jo`rligida

qo`shiq, o`yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarda ijro etilgani bizga ma'lum.

Boyramlar ko`proq yil fasllari bilan bog`liq bo`lgan. O`rta Osiyo “Navro`z”, “Lola sayli”, “Hosil bayrami”, “Qovun sayli”, “Uzum sayli” kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarni xalq cholg`u ansanblari xonanda va sozandalar hamda raqqosalarsiz tassavur qilish qiyin. Bayramlarda, ma`daniy marosimlarda ayniqsa, karnay, sunray, doira, nog`ora va chindoul kabi va urma zarbli musiqa cholg`ulari keng qo`llangan. Xalq raqislari aslida qosh o`yini, yelka o`yini, bosh o`yini kabilarni o`z ichiga olgan. Ular qarsak jo`rligida ham ijro etilgan.

Feodalizm davrida O`rta Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotining yangi bosqichiga ko`tarildi. VII asrda Osiyoga arablarning kirib kelishi keng hududda arab xalifaligini barpo etdi. Tirik jonzodni tasvirlashni taqiqlovchi islom dinining yiyilishi devoriy suratlarni, shu jumladan musiqa cholg`ulari tasvirlarining barham topishiga olib keldi. VII-VIII sarlardagi arab istelosi O`rta Osiyo madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta'sir o`tkazildi.

IX asr oxirida somoniylar mahalliy feodal sulolasi O`rta Osiyolarning katta gina qismini birlashtirishga muvaffaq bo`ldi. Somoniylar davlatining poytaxti Buxoro yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda adabiyot va musiqa taraqqiy etdi. Hayot sharoitining o`zgarishi tufayli musiqa san`atning ijtimoiy ahamiyati oshdi. Shaharliklar va yoqori tabaqa sinflari turmushda musiqaning roli sezilarli kuchaydi. O`sha paytlardayoq yakka navoz, ansambli musiqachiligi va raqsni o`z ichiga olgan vocal cholg`u musiqa turkum turlari mavjud edi. Saroy a`yonlari tantanali marosimlarda ijro etilgan musiqa alohida o`rin tutgan. Odatta bu bir necha damli (karnay-surnay) va urma zarbli cholg`ular: (nog`ora, chindovul) asboblarining birgalikda chalinishidan hosil bo`lgan. Dutor ijrochiligi o`sha paytda faqat kamer hususiyat kasb etgan bo`lib, bu ijrochilik san`atini asosan ayollar egallagan edilar.

O`rta asr musiqa ijrochiligi madaniyatining o`ziga hos hususiyatlaridan biri shunda ediki, cholg'uchilar nafaqat bir necha turdagi musiqa turlarini chala olgan, balki o`zlari ham musiqa bastalaganlar. Cholg'uchilar o`z davrining yetuk musiqachilari va shoirlari ham bo`lishgan. O`rta asr sharoitida musiqiy iqtisoslashuv mahsus musiqiy ustoxonalarini paydo bo`lishiga olib keldi. Bu yerda ustoz-shogirt an`analari qaror topib rivojlandi. Ayni paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san`atining asosiy ko`rinishlari shakllanib cholg'u asboblarning yangi namunalari kashf etilishi ham o`sha uzoq davrlarga borib tarqaladi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san`ati tajribasi asosida shakllangan bo`lib, ular o`z risolalarida musiqaning jamiyatda tutgan o`rni va ahamiyati haqida atroflicha malumot berganlar. Farobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa al-kabr"), Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitob ush-shifo") qomusidagi "Musiqha haqida risola", Al-Xorazmiyning (X-asr) "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliy janoblik haqida kitob" yoki "Sharafiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqha haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va xalq cholg'ulari haqida muhim malomatlar bayon etilgan. Safiuddin Urmaviy istedadli ud cholg'usi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmiya shahrida tug'ulgan. Safiuddinning eng katta yutug'i lad ("modus") larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir. Ibn Zaylining (1049-yilda vafot etgan) "Musiqha haqida to`liq kitob"i ("Kitob ul-kabi fel-musiqiy") uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobidir. U yangi usulni-musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy (XV-asr) Abduqodir ibn-G'oyibiy (Marog'iy) Ozarbayjonning Marog' shaxrida tug'ilgan bo`lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida-Samarqandda o`tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqha ilmida ohanglar to`plami" ("Jami al-Alhan fe-ilm al-musiqiy") risolasida musiqa haqidagi ta'limini-kamoncha yeti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumatlar bilan boyitdi. Al-Xusayinning

(XV asr) Musiqiy Kanonlarida asosan O`rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan ikki torli musiqa cholg`usi haqida-dutor haqida ma`lumot berilgan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazaryotchisi sifatida tanilgan bo`lib o`z risolasida kamonchali tanbur haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozi musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblanadi. XVII asirda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o`z risolasidagi tanbur, chang, qonun, barbot, chag`ona, ut, rud, rubob, qovuz, g`ijjak, shemane, ruxavza, kungura kabi musiqa cholg`ulari haqida batafsil ma`lumot bergan.

Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg`ularini o`rganish sohasida ham tarixiy qimmatga ega. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari-“Musiqqa haqida katta kitob” (“Kitob al-musiqqa al-kabir”) ulkan ahamiyatga ega. O`rta asir olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo`shiq san`ati) va cholg`ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Farobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg`ularining jamiyat hayotidagi rolini o`rganishga ahamiyat beradi va u: “...Jangu-jadallarda, raqislarda, to`y-tomoshalarda, ko`ngilochar bazmlarda hamda ishq-muhabbat qo`shiqlarini kuylashda chalinadigan o`ziga hos cholg`ular bor”, deb yozgan edi.

Farobiyning yuqorida keltirilgan fikri cholg`ularning turli-tumanligi va ularning nafaqat saroy a`yonlari, balki shahar va qishloq aholisi hunarmandlari orasida, shuningdek musiqa madaniyatida yetakchi rol o`ynaganligini tasdiqlaydi.

Farobiy shuningdek **nayni** ham ta`riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg`ularini ovoz hosil qilish prinsipiga ko`ra naysimon guruhiga kiritadi, yani nay quvirida havoning damli harakati orqali tovush hosil bo`ladi. Ulardan biri oddiy nay yoki bir yo`nalishda joylashgan ko`p teshikli nay. Bu turdagi bo`ylama naylar yoki turlicha ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uni vitnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg`a, ozarbayjonlar ney (juda kam uchraydi), qirg`izlar uoo, choor (choponlarning cholg`u asbobi), o`zbeklar nay deb ataydi.

Olim ko`pincha o`rik yoki tut daraxtidan ishlanadigan sunray haqida ham to`xtaladi.

Farobiy shuningdek, dunay (mezmar)ni ham tilga oladi. **Dunay** hozirgi qo`shnay yoki turkman xalq cholg`usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo`shqamish naychadan tuzilgan cholg`u)ga o`xshaydi.

Farobiy risolasida o`zi yashagan davrda mavjud bo`lgan **rubobni** ham batafsil tariflaydi. O`sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o`xshab resonator va ancha uzun dastadan tuzilgan. Ikki xil chertma torli rubob mavjud bo`lgan: 1 yog`osh dekali va asosiy qismi yogochdan, 2 pastki qismi charimdan ishlangan.

Farobiy shahodat berishicha, **chang** ochiq torlarning tebranishi orqali ohang hosil qiluvchi musiqa cholg`ulari turkimiga kiradi. O`sha davrdagi changning 15 tori bo`lgan, ular deatonik sozlangan va ikki oktava oralig`iga teng tovush qatoriga ega bo`lgan. Risolada ta`riflangan barcha cholg`ular ashula, raqs, yakka navoz va ansambl ijrochiligi jo`r bo`lishida foydalanilgan. Farobiyning guvohlik berishicha, ud cholg`usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o`ynagan. “Cholg`u asboblari to`g`risida kitob ”da olim tanbur, rubob, chang kabi cholg`ularni udda chalinayotgan kuyga yoki yakka navoz xonandaga uyg`un jo`r ko`lish uchun sozlash usullarini tushuntiradi. Shunday qilib, Sharqning ulug` allomasi musiqa ilmining bir bo`limi sifatida cho`g`ularni o`rganuvchi cholg`ushunoslik sohaga asos soldi. Bu soha keyinchalik boshqa olimlarning asarlarida ham eng boyitildi va rivojlantirildi.

Yashagan davriga ko`ra buyuk olim ibn Sino Farobiyga juda yaqin. Uning “Davolash kitobi” deb nomlangan yirik qomusning “ Musiqa haqida risola ” bobida o`sha davrning musiqachiligiga oid ilmiy-falsafiy bilimlari bayon etilgan. Bu risolada cholg`ular ta`rifiga anchagina o`rin ajratilgan. Ibn Sino o`z davri musiqalarini ikki guruhga bo`ladi: mizrobli, nohinli (bardat, tanbur, rubob) va butun resonator qopqog`i bo`ylab tortilgan ochiq torli cholg`ulari (shoxruh, chiltor, lira), chang (arfa).

Inson ovozi azaldan mukammal cholg'u xisoblangan. Torli-mizrobli yoki torli-kamonchali musiqa cholg'ulari ijrochilari hamisha o'zlari yaratgan kuylar ohangini inson ovozigacha yaqinlashtirishga, bunda o'zgacha bir musiqiylikka erishishga, ohangni tasirliroq, samimiyroq, ravonroq chiqarishga intilishgan. Olim ohangi inson ovozigacha juda yaqin turgan cholg'ular ud va rubobni batafsil ta'riflagan. Bunda rubob tushunchasi ostida gijjakka o'xshagan, torlari kamoncha bilan chalingan musiqalari nazarda tutilgan. Damli cholg'ular ichida risolada nay (fleyta) va sunray, shuningdek Vizantiya organun (muzmar, muzamir)ni keltiriladi.

O'sha davrda Sharqning taniqli mutaffakkiri Sayfuddin Urmaviy musiqa ilmi tizimi (sestemasi)ni rivojlantirdi. U usta ud cholg'uchi, xonanda va mohir bastakor sifatida mashhur edi. Udda olib brogan tajribalariga tayanib olim o'z nazariy qoidalarini bayon etdi. Urmaviyning "Taqvodorlik kitobi"da ud ta'rifi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi: "Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud deb ataluvchisi eng mashhur va eng zamonaviydir". Udning besh juft tori kvarta tartibidagi 7 ta maqomi (ladi) bo'lgan. Torlari, bam, masnas, masne, zer va eng yuqorisi hadd deb atalgan. Besh qo'sh torli, takomillashgan ud keyingi paytlarda ham o'z tuzilishini saqlab qolgan (shu kunlarga Armaniston, Ozarbayjon va O'zbekistonda saqlanib qolgan ud ham qo'sh besh torli, lekin maqom (lada) siz). Udning kvartaga mos sozlangan besh qo'sh tori va etti maqomi (ladasi) haqida Sheroziy (1236-1311), Jomiy (XV-asr), Al Husayniy, Marog'iy, Ibn Sinolar ham yozishgan. Jomiyning " Musiqa haqida risola " sida keltirilgan ud dastasining to'la tizmasi uni sozlash haqida to'liq tasavvur beradi. Uning tasdiqlashicha mavjud 12 maqom qadimiy yetuk musiqaning asosidir. Jomiy musiqaning tinglavchilarga ta'siri haqida to'xtalib, uning chuqur ruhiy va ma'naviy ahamiyati bor, deb hisoblaydi.

Marog'iyning XIV asrda yaratilgan "Kanz al-Tuhaf" risolasida g'ijjak va rubob haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Masalan Marog'iy o'zining risolasida g'ijjak yasash usuli (texnologiyasi) haqida ma'lumot beradi. Olimning tasdiqlashicha ipak yoki nay torlar jez torlarga nisbatan ancha yaxshi va ohang chiqarish mumkin edi.

Qo`sh torli cholg`u-dutor haqida ilk ma`lumotlar Al-Husayniyning XV asrda yaratilgan musiqa qanonlarida uchraydi. “Dutor” atamasining paydo bo`lishiga uni shaklan o`xshash, ko`p torli boshqa cholg`ulardan (ozarbayjoncha soz, tanbur, ud kabi) farqlash asosiy sabab bo`lgan.

XIII-XVII asrlarda yaratilgan risolalarda chang, qonun, nuzxa, rubob, tanbur kabi torli cholg`ular, shuningdek, damli cholg`u-nayning ta`riflari berilgan. Darvish Alining (XVII-asrda) Buxoroda yaratilgan musiqa doir risolasi an`anaviy xalq cholg`ulari haqidagi ma`lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Unda musiqa madaniyati, chunonchi O`rta Osiyoning yirik shaharlarida mavjud bo`lgan cholg`ular haqida mohir ijrochilar haqida nodir ma`lumotlar mavjud.

Darvish Alining risolasi XVI-XVII asrlarda O`rta Osiyo musiqasini o`rganishda qimmatbaho manbadir. Mazkur asarda mashhur xonanda va cholg`ular, bastakorlarning ijodiy tarjimai hollari bayon etilgan. Risolaning V va VI boblari o`sha davrda ko`pgina Sharq mamlakatlarida qo`llanilgan xalq cholg`ulari haqidagi ma`lumot batafsil bayon qilinadi.

Darvish Alining o`tmishdoshlari singari torli, mizrobli cholg`ular orasida tebranish ohangiga ko`ra eng yaxshisi sanalgan udni cholg`ular “shoxi” deb atagan. Udning juft sozlangan o`n ikki tori bo`lgan. U farobiy davridagi dastlabki uddan birmuncha farq qilgan. Darvish Alining ma`lumotlariga qaraganda, oltinchi quyi tor (muxtalif) cholg`usining pastki deapazonini (bas registrini) kengaytirgan.

Risolada yozilishicha chang cholg`ulari homiysi-Zuhraga bag`ishlangan. Ta`riflangan changning yeti maqom ijrosi uchun yigirma olto tori va yeti pardasi bo`lgan. Nay qadimiy cholg`ularning biri sifatida tilga olinadi. Bulardan tashqari, risolada qonun, rubob, qobiz, g`ijjak, musiqor, endon-nay (damli, charimli), Xitoyda tarqalgan ruxavza (olti tordan iborat nohinli) kabi cholg`ular ham tilga olingan.

Darvish Ali ta'rif b ergan cholg'ulardan yettitasi: tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g'ijjak o'sha davrda eng keng tarqalgan cholg'ular edi. Darvish Alining ma'lumotlari musiqa amalyotida dastlab ansamblda uyg'un kolorit hosil qiladigan torli-noxinli va torli-kamonchali cholg'ulari qo'llanilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi. Risolada changchi Dilorom, naychilar Abduqodir va Xo'ja Abdullohi-Lori, Mavloni Miker changiy Buxoriy, Mavloni Qosim-i-Rabboni, Sulton-Ahmad-i-“ devona ”, rubobchilar aka-uka Shayx-Abu-Bakr-i Rabboniy va Shayx Behduchi Dono, qonunchi shayx Shamsi-Rabboniy va ko'pgina boshqa mashhur ustalarning nomlari tilga olinadi.

G'ijjak cholg'uchi Shox Quliy-G'ijjakiy shu musiqa asbobida ajoyib ijrochilik mahoratini ko'rsatgan va cholg'u kuylarini yaratgan usta san'atkor bo'lgan. Uning yaratgan kuylari o'rtasidamuhammas ritmiga yaratilgan pishravi “Husayniy” alohida ajralib turadi.

Naychi Sulton Ahmadni Darvish Ali mashhur cholg'uchi sifatida tilga oladi. Risola muallifining yozishicha, u chalgan nayning sehirli ohanglari musiqa san'atida ixlosmandlarida chuqur taassurot qoldirgan.

Ud cholg'uchisi Sulton-Muhammad-Uddiy-Samarqandiy muallif noyob iste'dodli cholg'uchi, musiqiy asarlar ijodkori sifatida aks ettirgan.

Buxorolik Shayx Shamsiy-Rabboniy mohir rubob cholg'uchi, mashhur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi tenglovchilarga shu qadar kuchli ta'sir qilganki hech bir kishini befarq qoldirmagan. Rubobining ohangini eshitib, betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planaverishgan ekan.

Taniqli cholg'uchi Darvish Shadiydan ud va chang chalish mahoratini egallagan uning shogirdi mohir sozanda Mavlon Zaynulla Bedaniy Rumi ko'pgina peshravlar (isfahon, saqil, peshrav, far, boshqa) ijodkor edi.

Xalq cholg'ularining ko'zga ko'ringan ijrochilaridan biri Ali-Shunqor Dugoh ohanglarida, Turk-zarb ritmida yaratilgan asarlar bastakori sifatida tanilgan. Uning

“ Safti begumiy ”, “ Naqshi begumiy ” (bo`yoqdor-ohangdor kuylar) ohanglari xalq orasida keng yoyilgan.

Najmiddin Kavkaviy va Darvish Ali risolalarida o`n ikki maqom- (Rahoviy, Husayniy, Zangula, Rost, Ushshoq, Navo, Bo`slik, Hijoz, Iroq, Isfaxon, Zirafkand, Buzruk) asosida musiqa asarlari yaratgan bastakorlar nomi tilga olinadi.

Ijrochilikda yetuk bo`lgan Mavlon Shayxiy-Tebes-Gileksiy-ibn-Abduraxmoniy-Rumiy (Rud), Ustod Zaytuniy-G`ijjakiy, Xo`ja-Mahmudbek Ishoqiy Shexaniy (dutor), Sayid Ahmad-bin-Mehtariy Miraqiy, Ustod Qurbon Sa`diy, Ustod Poyonda (surnay va nog`ora), Ustod-Amir-Quliy Tanburiy (tanbur) Ahmad Qonuniy Samarqandiy (qonun), Shayx Axmadiy Qobiziy (qobiz), musiqa nazariyasining katta bilimdoni, o`z davri musiqa san`ati vakillarining ilg`ori Amir Mastiy Hirotiy (qobuz), Yusuf Mavloniy dutori Hirotiy (dutor), Ustod G`oloqiy Nayi Ustod Abdusattar-Qonuniy, Ustod Arab-Navziy Qobiziy, Xo`jagi Ja`fariy Qonuniy, Hofiz Boboiy Qonuniy, Hofiz Turdiy Qonuniy va boshqa xalq cholg`u ijrochilari muhim o`rin tutganlar.

Darvish Ali o`sha davrda mavjud bo`lgan cholg`u ansambllari va ularning ijrochilari haqida, ular Sulton Muhammad saroyida turli xil tantanalarda, dam olish kechalari va yaqin kishilar davralarida doimo ishtirok etganlari haqida xabar beradi. Saroyda nog`ora xona, deb atalgan 60 ijrochidan tashkil topgan cholg`uchilar ansambli bo`lgan. Ularni nog`orachi (maestiro) boshqargan. U misol tariqasida shunday dalilni keltiradi: “Sulton Husayn saroyida ansambl rahbari-mehtar Vazifasini yetuk nog`orachi Sayid Ahmadbin mehtariy-Marociy bajargan. Darvish Ali bu sozandaning mahoratini yuksak baholab, uni” tengsiz cholg`uchi, b dunyoning katta-yu kichik mo`jizalari ko`rki”, deb ta`riflagandi. Saroyda ko`p sonli sozandalarning saqlanishi, ularning hordiq chiqarish, tantana va bayramlarni tashkil etishdagi ahamiyati, xalq cholg`ulari ijrochiligi ahalining turli tabaqalari orasida keng tarqalganligi haqida taxmini to`liq asoslaydi.

Darvish Alining guvohligi yana shunisi bilan qimmatliki, u qayd etgan cholg'ularning kattagina qismi (nay, surnay, chang, qonun, rubob, tanbur, g'ijjak, qobiz, doira, nog'ora, ud). O'rta Osiyoning O'zbekiston, Tojikiston va respublikalarida, shuningdek Ozarbayjonda bizning kunlargacha saqlanib keldi va u takomillashmoqda. Ushbu musiqa cholg'ulari uzoq vaqt mobaynida o'zbek xalqining madaniy turmushidan mustahkam o'rin olib, uning madaniy hayotida keng qo'llanib kelingan. Shunday ekan, bu cholg'ularni o'zbek xalq cholg'ulari deb atash o'rinlidir.

Feodal shaharlarning ijtimoiy turmushida har bir musiqa cholg'usining muayyan vazifasi bo'lgan. Ziyofat, bazm va yig'inlar (shoirlar majlisi) da odatda turli cholg'ulari, damli cholg'ulardan nay, ba'zan bo'lamon, cholg'ularidan doira va nog'ora chalingan.

Darvish Ali o'sha zamonning buyuk xalq cholg'ulari ijro etgan ko'pqismli, turkum musiqiy asarlar-maqomlarning katta ahamiyati haqida so'z yuritgan. O'rta asr Sharq olimlarining asarlarida musiqiy cholg'ular, ular yaratgan ma'naviy va madaniy muhit haqida tarixiy ma'lumotlar yetarli bayon qilingan, ammo ularda u yoki bu xalq cholg'ularining texnik va badiiy imkoniyatlari haqida ma'lumot juda oz. Risolalarda takidlanishicha, ijrochilar aynan o'ziga xos ijrochilik amalyotiasosida musiqa nazariyasini ishlab chiqishgan va xalq cholg'ularining mavjud shakllarini ta'riflashgan.

Mo'g'illar istelosi davrida (XIII) O'rta Osiyoning madaniy hayotida biroz orqaga ketish bo'lgan va faqat sohibqiron Temur O'rta Osiyoni birlashtirgach, san'atning turli sohalari yana ravnaq topa boshlaydi. Temur o'z poytaxti Samarqandda me'morchilik ishlariga katta etibor berdi. Samarqanddan tashqarida ham bir qancha me'morchilik obidalari qad ko'tardi (Shaxrisabz, Yassa shaharlarida). Egallab olingan ma'daniy markaklardan turli kasb ustalarni, shu jumladan, cholg'uchilarni (cholg'ulari bilan birga) olib keldi.

Xalq cholg'ulari xalq og'zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy bog'liqlikda rivojlandi. Xalq cholg'ulari haqidagi tasavvurlarni badiiy asarlardagi musiqa cholg'ulari ifodalari, kitob miniatyuralardagi cholg'ular tasviri boyitadi. Firdavsiy, Sadiiy, Navoiy, Nasmiy, Fuzuliy, Behaqiy, Dehlaviylarning asarlarida 60 dan ziyot xalq cholg'ularining nomi zikr etilgan.

Firdavsiyning "Shohnoma" asari (XIV-asr) muzavvar Muhammad Muqim Xisrov oldida ud chalayotgan VI asr cholg'uchisi Barbadni tasvirlagan. Asardan cholg'ularning ikki guruhda cholg'ulari (chang, rud, lyutnya, felita, nay) va shovqin damli cholg'ulari (karnay, litavralar, bubin, baraban, gong)ga bo'linganligi ma'lum bo'ldi.

Abdulla Fayzli Bayhaqiy (XIV-asr) asirlarida torli mizrobli (rud, barbad, tanbur) damli va urma zarbli cholg'ular (karnay litavra va baraban) singarilarnin nomlari keltirilgan.

XIV asr oxiri XV asr boshlarida Oрта Osiyoda adabiyot va san'at jumladan musiqa temuriylar ijtimopiy hayotida (ayniqsa Samarqandda) muhim o`rin tutgan. "Zafarnoma"ning bir miniatyurasida Temurning safarga chiqishini aks ettirgan bo`lib, unda dutor cholg'usi tasvirlangan. Boshqa bir sur`atda esa karnaychi qal`a devori ustida turib Temur qo`shinlari g`alabasi haqida jor solayotganligi aks ettirilgan.

Samarqandlik xonanda va sozandalar el orasida xalqli ravishda shuxrat topganlarlar. Ular yuksak ijrochilik mahoratiga rang-barang repertuarga ega bo`lgan istedodli musiqachilar sifatida ta`riflanganlar. O`sha davrning tarixchilaridan biri Hofiziy-Abbru yozadi: "shira ovozli qo`shiqchi va mohir cholg'uchilar fors taronalari arabcha ohanglarda turkiychasiga, mo`g`ilcha ovoz bilan xitoy qo`shiqlari qonuniyatlariga oltoyliklar o`lchamlariga muvofiq chalishgan, kuylashgan".

XV-XVII asr miniaturalarida chang (arfa), doira, lyutnya barbad, ud, qonun, g`ijjak, soz, nay, rubob, tanbur kabi cholg'ulari tasvirlangan. "Shohnoma" ning X

asr o`rtalarida ko`chirilgan nushasida miniatyura barchasida chang, ud, tanbur va rubob cholg'ulari aks ettirilgan. Orta asr miniatyuralarida nay xalq cholg'ulari xonaki ansambli tarkibida tasvirlangan. Bu cholg'ularning jozibali ohangidan ilhomlangan Jaloliddin Rumi (XIII-asr) unga bag'ishlab "nay qo'shig'i" sherini bitadi:

Nayning ovozigga quloq tut
Une haqda g'am chekar, yig'lar:
Mangu hijron, o'tmish alamin
Unitolmay dillarni tirnar:
"Qamishzorda beshafqat cho`pon
Kelganida meni beomon
Oshiqlarning ohu-yoshlari
Singib ketdi tanimga tomom
Azob ichra qolgan bo`tamga
Umir bo`yi qaytmoq istayman
Mangu visol armon azobin
Ko`ngillarga aytmoq istayman"

XIV-XV asr miniatyuralarida cholg'ulardan tashqari qarsak jo`rligida ijro etilgan raqslar ham tasvirlangan. Chang, lyutnya, ud kabi musiqa cholg'ulari haqida Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asari qo'lyozmasida ifoda etilgan rasmlar guvohlik beradi. Keltirilgan ma'lumotlar, ya'ni miniatyuralarda ifodalangan musiqa cholg'ulari o'sha davr musiqa shakllari haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Ma'lumki, Sharq adabiyotida o'tmishda shoirlar asarlarida javob yozish "nazira" sestemasi keng qo'llanilgan. Ko'plab "Xamsa"lar ham shu yo`sinda yaratilgan. Navoiy o'zining "Sab'ai sayyor" ("Xamsa" dostonlarining biri) dostonida Bahrom Go'r haqidagi qadimiy afsonani yangicha talqin etdi. Unda an'anaviy voqealar tizmasi kengaytirilgan va boyitilgan. Asar qahramoni-chang

cholg'uchisi Dilorom deb atalgan. Shoir uning cholg'usini musiqa timsoli sifatida gavdalantirgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) e'tirof etishicha, Alisher Navoiy o'z davrida ko'plab ud cholg'uchilar, naychilar, g'ijjakchilar, changchilarning o'z iste'dodlarini namoyon etishiga ko'maklashgan "Boburnoma"da o'zbek xalq cholg'ulari ijrochilarining nomlari zikr etilgan. Boburning ta'kidlashicha, "Ustod-qul Muhammad Shayboni va Husayn uddiy kabi mohir cholg'uchilar Bek (Navoiy)ning bevosita yordami va homiyligida katta shuhrat qozondilar, ulkan muvoffaqiyatlarga erishdilar". Bobur shuningdek, Shoh Qulliy-G'ijjakiy, Husayn, Uddiy, Xo'ja Abdulloh Marvarid Qonuniy kabi mohir ijrochilarni ham tilga oladi. Navoiy davrida nay, ud, g'ijjak, qonun, karnay, surnay, nog'ora, doira, chang ijrochiligi keng tarqalgan edi. Ularning hammasi ansambl ijrosida alohida ajralib turgan.

Navoiy changni shoirona til bilan quyidagicha tasvirlaydi.

Sarv qad olsa erdi maydin kom
Nastaranni chu aylabon gulfom.
Chang olib torini tuzor erdi,
Lek jon rishtasin uzor erdi.
Demagil chang, soliki ham qad,
Chang qadlar bila bo`lub hamqad
Bo`libon ul sulukdin muxbir,
Bosh quyiliqda bo`lmog'i zokir.
Erdin olmay qadam, yurugali yo`l,
Lek o`lib soyiri maqomot ul.
Chun ibodatg'a qomatin xam etib
Ikki-uch yerda belni mahkam etib.
Dema soliq, degil xarobotiy,
Savtidin dayr edi mubohoti.
Ko`rguzub dayr sori yo`l elga,
Necha zunnor bog`labon belga.
Har qachon un chekib, tarona tuzub,
Bazm aro nag'mai mug'ona tuzub

Har qayon ul mug'ona nag'ma borib,
Elni yo`q dinki, aqldin chiqorib
Yo`qki, qaqnus durur namudori,
Kosasidin ajabu minqori.
Suqba minqori ichra sar to sar,
Ki bo`lib anda torlarg'a guzar.
Tor ila nag'ma beadam bo`libon,
Tor yo`q, nag'malarg'a mad bo`libon.

Chang eng keng tarqalgan cholg'u sifatida ko`plab adabiy manbalarda qayd etiladi. Chang cholg'uchilarini o`z asalarida Fieravsiy-Ozoda, Navoiy-Dilorom, Nizomiy esa Fitna deb atashgan.

XV-XVII asr yozma yodgorliklari ma'lumotlarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkin, ya'ni bu davrga kelib O`rta Osiyoda xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyati o`z kamolatiga etdi. O`zbek xalq cholg'ulari ijrochilari ayni chog'da o`zlari ham musiqa asarlari yaratganlar. O`sha paytdayoq mohir chang, ud, g'ijjak, qonun, nay, tanbur, bo`lamon ijrochilari va yetuk xonandalar bo`lgan, ular o`ziga xos ansambllar tuzishgan. Shuningdek, yakkanavoz ijrochilik ham rivojlangan.

Shahar hunarmandlarining musiqaviy faoliyati sezilarli darajada kengaydi. Ko`pchilik ijrochilar hunarmandlar orasidan chiqqan bo`lib, cholg'uchilik kasbi ular uchun "yuqori" tabaqa jamiyatiga yo`l ochgan. Ularni tez-tez saroy tantana marosimlariga jalb etishgan. Vosifiy o`z "Esdaliklar"ida ud, nay, g'ijjak, tanbur, qonun, qobiz chalishda yuksak mahoratga erishgan va shu orqali majlislarning matlub qatnashchilariga aylangan hunarmandlarning nomlarini keltirga. Nazm va musiqa majlislarning ko`rki bo`lgan. Bu yerda hozirjanoblik, qo`shiq, aytish, biror-bir musiqa asbobini chalish layoqati yuqori baholangan. Yosh ijrochilar uchun bu o`ziga xos ko`rik-musoboqa bo`lgan. Shuning uchun ular bir yoki bir necha musiqa cholg'ularini chalishda bir-biridan o`zishga intilishgan.

Vosifiy o`z "Esdaliklar"ida ajoyib uslub o`ylab topgan qonun cholg'uchi Hoji Abdullo Marvarid nomini keltiradi. U bastalagan kuy va qo`shiqlar xalq orasida

keng tarqalgan. Vosifiy shuningdek Hasan nay, Qul muhammad yddiy, Ahmad g'ijjakiy, Ali Quchoq tanburiy kabi cholg'uchilarning nomini qayt etgan. Shunday qilib, XIV-XVII asr tasviriy san'atida va adabiy merosida ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaluvchi musiqa cholg'ulari asosiy tiplarining barqarorligini tasdiqlovchi boy material berilgan. Va nihoyat, Temuriylar davri va keyingi ikki yuz yillik davr kitob miniatyurasi xalq cholg'ulari ansamblining quyidagi ikki turi bo'lganligi haqida shahodat beradi:

- 1) doira va nay jo'rligida chertma torli ansambl (xonaki tipdagi);
- 2) damli va urma zarbli cholg'ular (karnay, surnay, bo'lamon, doira, nog'ora) ansambli;

Ansamblning ikkinchi tipi hollarda harbiy orkestr sifatida foydalanilgan. Buni quyidagi satrlar tasdiqlaydi: "Karnay va do'mbralar chalindi, saf tortgan sipohilar bir ovozda uch karra harbiy xitobni takrorladilar".

Cholg'u asarlari ichida sodda xalq kuylari va asarlari (naqishlar va peshravlar) bilan bir qatorda yirik professional ijod shakllari ham keng tarqalgan edi. Bobur esdaliklarida yozishicha, Navoiy davridagi ko'plab ijrochilar shunga o'xshash cholg'u asarlari (maqomlarning mushkilot qismi nazarda tutilgan) yaratishgan.

O'rta Osiyo olimlarining musiqa haqidagi risolalari, badiiy adabiyot, rassomchilik bizning kunlarga yetib kelgan o'zbek xalq cholg'ulari tarixiy taraqqiyotining uzun zanjiridagi ayrim uzilgan halqalarini qaysidir darajada tiklash imkonini beradi. Musiqa cholg'ulari yasovchi xalq ustalari bir parcha yog'ochdan, qamishdan, suyakka "jon" ato etishgan, bu ularga abadiylik bag'ishlagan. Necha yuz yillar o'tdi, musiqa cholg'ulari esa yakka, ansambl va orkestr ijrochiligida o'z o'rnini egallab, bugungi kungacha yashab kelmoqda.

XVII-XIX asrlarda cholg'ular batafsil ta'riflangan yirik asarlar yaratilmadi. Bu ko'proq, feodal tarqoqligining kuchayishi bilan bog'liq. Ulkan davlat ayrim-ayrim xonliklarga bo'linib ketadi (Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari). Bu esa musiqa san'ati taraqqiyotida aks etmay qolmadi. O'zbek musiqa madaniyati

mahalliy xususiyatlar kasb eta boshladi. O`ziga xos musiqa cholg`ulari shakllandi. Musiqa turlaridan maqomlar bundan buyon har bir xonlikda o`ziga xos yo`nalishda takomillashdi. Maqom ijrochilari zarurat yuzasidan o`zgarishlar kiritishdi. Shunga qaramay, musiqaning umumiy xususiyatlarini saqlab qolishdi. Har bir ijrochi maqom ijrosiga ijodiy yondoshib, musiqa ijrosiga o`ziga xos takrorlanmas jihatlarini kiritdi. Og`zaki tarzda cholg`ularni saqlab qolish an`anasi maqomninh asosiy xususiyatlaridan biri bo`lib, busiz uning yashab qolish va so`ngi taraqqiyotini tasavvur etish qiyin. Har bir xonlikda o`ziga xos bir yo`nalishda xalq musiqasining yangi turlari yaratildi: Bayramona kuylar, xalq tomosha san`ati kuylari (dorbozlik, qo`g`irchoqbozlik), yangi tipdagi raqs turlari. Bu kuylar o`zining quvnoqligi, sho`xligi bilan bir-biridan farq qilib turgan va xalq ommasini o`ziga jalb etgan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida o`zbek musiqa madaniyatida xalq va professional musiqa san`atining quyidagi ko`plab yangi turlari takomillasha boshlaydi: katta ashula, katta o`yin, Shodiyona, Navro`z, Mavrig`in, Shoshmaqom, chormaqom (unga Dugoh Husayniy, Chorgoh, Bayot, Gulyori-Shahnoz kirgan). Joylarda mavjud musiqa cholg`ulari va ijrochilarga bog`liq holda turlicha cholg`u ansambllari tuzilgan. Ko`p hollarda xalq cholg`ulari ansambli tarkibiga g`ijjak, tanbur, dutor, chang, nay, qo`shnay, doira kabi musiqa cholg`ulari kiritilgan.

Musiqachilikda olti turkim asarlardan iborat Shashmaqom ayniqsa mashhur bo`lgan. U O`rta Osiyo xalqlari syuta (turkum) shaklidagi professional musiqasining uzoq tzaqqiyoti natijasida vijudga kelgan. I.Rajabov yozadi: "Shoshmaqom olti xil turli lad sistemalaridan iborat, ularning har biri o`z navbatida mushkulot (cholg`u) va nasr (ashula) bo`limlaridan iborat bo`lgan quyidagi maqomlarga (qismlarga) bo`linadi: "Rost", "Buzruk", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Iroq" har bir maqom 20 tadan 40 tagacha katta-kichik qismlarni o`z ichiga oladi. Hammasi bo`lib turkumda 250 ka yaqin mushkulot va nasr qisimlari bor. Bir maqomning ijrosi bir necha soat davom etadi".

Maqomlar asosan saroy a'yonlari huzurida muayyan vaqtda yoki muayyan sharoitda ijro etilgan. Hatto mohir qo'shiqchilarning o'ziga xos musobaqasi (ayniqsa avjlarni ijro etishda, shuningdek, yangi qismlarni to'qshda) tashkiletilgani ma'lum.

XIX asr oxiri–XX asr boshida mashhur xonanda va sozandalar Domla Halim Ibodov, UstaShodi Azizov, Levi Boboxonov, Hoji Abdulaziz Rasulov, Sodirxon Bobosharipov, Boboqul Fayzullayiv, Shunazar sohibov, Fazliddin Shaxobovlar Shoshmaqomga yangi hayot baxsh etishdi.

O'zbek xalq cholg'ularining ijrochilik imkoniyatlari doimo kengaydi va takolillashdi. Turli xil xalq cholg'u ansambllarining tashkil etilishi, yakkanavoz cholg'uchilikning rivojlanishi musiqa ustalaridan cholg'ularni yanada mukammallashtirishni talab etadi. Biroz vaqtdan so'ng xalq musiqasi ansambllarida qashqar rubobi va chang singari cholg'ularning ovozi yangitdan yangradi.

XIX asrda ijrochilik amalyotida nay, qo'shnay, surnay, karnay, bo'lamon, chang, qashqar rubobi buxoro (afg'on) rubobi, tanbur, dutor, do'mbra, g'ijjak, sato, doira, qayroq, safoyl kabi cholg'ular mustahkam o'rin oldi.

Cholg'u ijrichilik san'ati tarixida ham XIX asr bir qator musiqa ustalarini erishtirib chiqargan davr bo'ldi. Bular: To'ychi Hofiz, Sharohim Shoumarov, Shaborot tanburchi, Abdusoat dutorchi, Usta Usmon Zufarov (Toshkent), Rustambek (Andijon), Ashurali Mahram, Abduqodir naychi, Ahmadjon qo'shnaychi

(Qo'qon), Abdulla Tarak, Ro'zimatxon changchi (Namangan), Usta Masaid doirachi va changchi Usta Olim Komilov, Yusufjon Qiziq (Marg'iloniy) va boshqalardir. Bu san'atkorlar o'zbek xalq musiqasi xazinasini saqlab qolishda, yosh iste'dodlarni tarbiyalashda, qadimiy cholg'ularning tuzilishini takomillashtirish va yangilarini yaratishda katta rol o'ynashdi. Tangi musiqa cholg'ulari sekin-asta turmushga kirib kelib, o'tgan yuz yillik oxirida

ansambllardan mustahkam o`rin oldi. Musiqa cholg`uchilar tomonidan qo`shiq va raqslarga jo`r holda ham keng foydalanilgan, ohanglarning ta`sirchanligi metroritmik bezak qochirimlar bilan to`ldirildi.

1.2 1917-1945- YILLARDA O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI

IJROCHILIK SAN'ATINING TARAQQIYOTI

1917- yil to'ntarilishidan keyin o'zbek musiqa san'ati jadal va jo'shqin taraqqiy qila boshladi. Birinchi o'nyillikdayoq musiqa ta'limi, folklorshunoslik, ijrochilik san'ati sohalarida muayyan yutuqlarga erishildik.

Musiqa o'quv yurtlari–Toshkentdagi Turkiston Xalq Konservatoriyasi (1918) va uning Samarqanddagi, Farg'onadagi (1919), Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o'zbek xalq cholg'ulari hamda ba'zi Ovro'pacha musiqa cholg'ulari (fortepiano, skripka va damli cholg'ular)ni chalish o'rgatilar edi. Bu musiqa bilim yurtlari tom ma'nodagi Konservatoriya bo'lmasa-da, biroq, o'tgan davr musiqa madaniyati ilmini o'rganish imkoniga ega bo'lmaganlarga sodda musiqa nazariy ilmi hamda ijro san'atida saboq berilar edi. Shu tufayli yosh respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloq yoydi.

1934-yilda Toshkent Musiqa oliy maktabi, 1936-yilda esa uning asosida O'rta Osiyoda birinchi musiqa oliy o'quv yurti–Toshkent Davlat konservatoriyasi ochildi.

1936-1937 o'quv yili xalq cholg'ularida ijrochilik sohasida musiqiy ta'lim rivoji uchun juda muhim davr bo'ldi. Aynan shu davrda Hamza nomidagi Toshkent musiqa bilim yurti A.I. Petrosyans tashabbusi bilan Yu. Rajabiy, A. Doroshiv, A. Mansurov, B. Gienko, N. Krestyanin, V.Marsinkovskiy, A. Maqsudov, O. Qosimov kabi o'qituvchilar umummaqbul nota sestemasi asosida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik bo'yicha saboq bera boshladilar. Sh. Shoakramov, A. G'afurov, M. Yunusov (chang), S. Yo'ldoshiv, G. Qodirov (tanbur), A. Ilyosov, M. A'zamov kabilar ularning birinchi o'quvchilaridan bo'lishdi.

XIX asrning 60-70-yillarida Toshkent, Moskva, Peterburg cholg'uchilarning mahalliy ijrochilik – musiqa ixlosmandlari ishtirokida konsert faoliyati faollashgan yirik madaniy markazga aylandi.

1877-yildan boshlab Toshkentga, keyinroq Samarqandga, Farg'onaga va boshqa shaharlarga yetuk musiqa jamoalari, gastrlyorlar va dramatik guruhlar tashrif buyura boshlashdi. Rus cholg'uchilarining demokratik an'analari Turkistonda baynalmilal aloqalarning o'rnatilishiga ko'maklashdi va Oktabr inqilobining g'alabasidan keyinroq tezda Toshkent, Buxoro, Samarqand va O'rta Osiyoning boshqa shaharlarida kasbiy musiqiy o'quv yurtlarining tashkil etilishida ma'lum darajada asos bo'lib xizmat qildi.

O'tgan asrning 70-80- yillaridagi O'rta Osiyo tubjoy aholisining hayoti (oilaviy turmush tarzi, urf-odatlar, musiqachilik ahvoli, marosimlari) rus va xorijiy etnografik-folklorshunoslarining diqqatini o'ziga jalb etgan. Xalq madaniyatining tarkibiy qismiga kirgan xalq cholg'ulariga bo'lgan qiziqishning boisi ham shu. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoga kelgan etnograf va sayyohlar Turkiston o'lkasining xalq musiqasini yozib olishda (notalashtirishda) muayyan ishlar qilishdi, bunda ular xalq cholg'ularini o'rganishga alohida e'tibor berishdi. Ular o'z ijodiy ishlarida musiqaning o'ta ommaviyligiga, uning xalq hayotida muhim rol o'ynashiga ahamiyat beradi.

Maskur manbalar tufayli biz musiqa san'ati mundarijasi, ijrochilik turlari, musiqa an'analari, cholg'ularining ta'riflari, o'zbek xalq kuylarining nota yozuvlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik.

A.Vambergning “Sharq hayoti va ahloqi haqida ocherk” (S.P.b 1877). V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning “Farg'ona o'troq tub aholisi xotin-qizlarning turmishi haqida ocherk” (Qozon 1886-yil). N.S.Likoshiyning “Yarim umri Qozog'istonda” (S.P.b 1917) kitoblarida va boshqa asarlarida xalqning bov badiiy merosiga, an'analarga o'zbek xalq cholg'ularining aholiga muayyan o'rin ajratilgan. A. Vamberg xalq cholg'ularida kalleksiya to'pladi. Tarkibiga

I.I.Zarubin, I.I.Rachinsk, K.N.Roset, A.N.Somoyloyichlar kirgan etno graflar guruhi Lelengrat muzeyi uchun “Xalq musiqa asboblarining to`liq kolleksiyasi”ni tuzishdi.

Turkiston o`lkasining taniqli tatqiqotchisi V.I.Massalskiy yozadi: “Musika cholg`ulari (dutor va qobiz)ni deyarli barcha xonadonda uchratish mumkin edi...”. Bu shundan dalolat beradiki xalq turmushida oilaviy musiqachilik keng tarqalgan bo`lib, chalishga ega eshitish qobiliyatiga asoslanib o`rgatilgan.

N.S.Likoshning guvohlik berishicha: “Toshkentda yangi, notanish gusli, simbalga o`xshash ko`p torli musiqa asbobida ikki xivchin yordamida sodda kuylar chaluvchi tungallik kishi paydo bo`ladi: Uni g`aroyib yangilik sifatida to`xtovsiz yig`inlarga takliv eta boshlashdi. Keyin mahalliy cholg`uchilardan biri tungandan changanni sotib olib, nafaqat uning qo`shiqclarini balki boshqa sof milliy muylarni ham chala boshladi. Bu tenglovchilardan o`ta yoqimli ta`surat qoldirdi. Shundan bo`yon sim, balchi turli orkestir tarkibida barcha yig`inlarga taklif etila boshlandi”.

1917-yilga qadar to`plangan musiqa cholg`ulari kolleksiyalarining eng boyi Sirdaryo viloyati musiqa xorining harbiy mapelmeysteri A.F.Eyxgornnikidir (o`sha paytda harbiy arkestirlar shunday atalgan). U harbiy barcha o`zbek xalq cholg`ularini to`plagan, ehgorni ularni quyidagicha ta`riflaydi: Ikki buralma torli, yarim nok shaklidagi dutorni u lyutinyalar guruhiga, g`ijjakni uch torli (fors kamonchasiga o`xshash) torli kamonchili cholg`ulari guruhiga, rubobni esa (buxoro yoki afgon ruboblari nazarda tutilgan) mandolinalar guruhiga kiritilgan. Muallif surnayni qamish puflagichli qadimiy damli cholg`u, qo`shnayni qoshqamishli felita (Ehgorning) takidlashicha, bunday felita (qo`nay) larda o`zbeklar qo`shiqqa mohirona jo`r bo`lishgan, karnayni esa tantanali marosimlarda, harbiy yurushlarda habar beruvchi vositachi, ayni to`g`ri shaklga ega bo`lgan, O`rta Osiyo aholisining harbiy burg`usi deb ta`riflaydi. Chirmanda (doira)ni musiqa-shunos qadimiy misrliklarni qo`l litavarlarni eslatuvchi chetellarda xalqlari bo`lgannog`oracha (tanburin) kabi qo`shiq va raqs ohanglariga

jo`rlikda qo`llanuvchimusiqqa cholg`usi deb ta`riflaydi. Nog`urani Eyxgorn ikki kichik sopol xurmacha va ikki urma tayoqchadaniborat, deb ta`riflaydi. Safoyilni u Qashqardan keltirilgan halqlari ko`rinadigan shaqildoqlar guruhiga kiritadi. Musiqa shunos etnograf changni qizlarning sevimli cholg`usi deb ataydi. Eyxgorning kolleksiyasida tanbur uch torli nohinli musiqa cholg`usi, nay, sarboz nay Misr yodgorliklarida uchragan qadimiy cholg`ular sifatida keltirilgan.

O`zbek kuylarini mashhur harbiy mopolmeyst V.V.Leysek ham notaga yozib olib, ular asosida damli cholg`ular orkestiri uchun “Osiyo popurrisi” pesasini yozdi.

Shunday qilib, 1896-yilni o`zbek xalq cholg`ularining respublika tashqarisidagi tashviqotiga asos solingan, yani birinchi o`zbek xalq cholg`ulari milliy orkestrning tashkil topgan yili deb hisoblash mumkin.

XIX asrning 80-90-yillarida barcha harbiy qisimlarda damli cholg`ular orkestrlari mavjud bo`lib, ular bir vaqtning o`zida ko`rgazmalar, yarmarkalar, tantanalar kabi turli xil jamoar tadbirlarida xizmat qilishgan. Ularning chiqish dasturlarida “Karpet”, “Sevaman”, “Sevaman Mamadjon”, “Manjuriya tepaliklarida”, “Vatanni qumsash”, “Bulg`or qiz” kabi qo`shiqlar, ruscha, ukrayincha, beluruscha raqs kuylari bo`lgan. Ular o`zbek xalq cholg`ulari ijrochilari repertuatlarida ham kirgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida o`zbek xalq cholg`ulari ijrochiligi sohasida jiddiy o`zgarishlar yuz berdi: yangidan-yangi shakllar paydo bo`ldi. Xalq ijrochiligi an`analari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomonlarini erituvchi kuy va qo`shiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doirachi, naychi, surnaychi, bo`lamonchi, g`ijjakchi, qashqar va afg`on rubobchilari paydo bo`ldi. Xalq cholg`ulari musiqa ixlasmandlari orasida keng yeyildi. Ular “Navro`z” bayramlarida va shu singari xalq sayillari va tomashalarida, hasil bayramlarida faol ishtirok etdilar.

Musiqqa ijrochiligi san'atida maqom janrini tiklash va rivojlanish davom etdi. Maqom o'zining ohang va retm qonuniyatlariga ko'ra xalq qo'shiqlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, faqat qamrovining kengligi bilan farqlanar edi. Odatda xar bir maqom ikki katta qismga bo'lingab. Birinchidan – faqat cholg'ularga ijro etilgan qismi bo'lib, mushkilot deb atalgan; ikkinchidan – cholg'ular aytiladigan asgula qismi bo'lib, u nasir deb atalgan. Nasr o'z ichiga raqs kuyi–uforni ham olgan.

Cholg'uchilar orasida musiqqa tovushlarini yozib ko'rsatadigan maxsus belgilar sistemasi (notasiya) yaratishga intilish paydo bo'ladi. Buni amalga oshirish shoir va musiqachi Paxlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasb etdi. Iste'dodli musiqqa ijrochisi, mohir tanburchi va g'ijjakchi Paxlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog'ida nota bo'yicha ko'p chalayotgan cholg'uchilarni ko'rib hayratga tushdi. Mirzaboshi–komil Xorazmiy Xorazimga qaytishi bilanoq ilgari diliga tugib yurgan niyati–maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi.

Cholg'uchi tanbur chizig'ida joylashgan, ladlar miqdoriga muvofiq ravishda o'zida 18 bo'ylama chiziqni mujassam etgan tabulatura yozig'i –“Xorazimga tanbur notasiyasi”ni kashf etdi. Ladni bosish joyi nuqtalar bilan belgilandi. Chiziq ustidagi va ostidagi nuqtalar bilan tanbur torlarini usti yoki ostidan chertish soni ifodalangan. Bu Xorazm tanbur nota yozuvi o'ngdan chapga o'qilgan. Muallif Xorazm olti yarim maqomning birinchi maqomi “Rost” ni cholg'u va ayrim yo'llarini yozib oladi. Bu ishlarda o'g'li Mirzo Matrasulboy yaqindan yordam beradi. Madrahimxon (Feruzning) yordamida mashhur hattotlar tomonidan nushalar ko'paytiriladi. Nushalardan bittasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanib kelinmoqda. Mukammal bo'lmasa-da, bu yangi nota yozuv uslubi ijrochilik tarixiga musiqqa merosini yozib olish va saqlab qolish yo'lidagi ilk urinishi sifatida kirdi. Notasiya muallifi katta musiqqa atbobi va o'qituvchisi ham edi. Xudoybergan Muxrkan, Xudoyberdi Mahsuykm, Bobojon bo'lamanchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov, Matniyoz yusupov va

ko`pgina boshqa taniqli sozanda va xonandalar undan dutor, tanbur, g`ijjak, bo`lamon, surnay, doira va boshqa cholg`ular chalishni o`rganishgan.

O`zbek xalq cholg`ulari ijrochilik taraqqiyotiga xorazmlik sozandalardan dutorchi Qambar bobo, bo`lamanchilar Abdurahmonlik, Abdulla bo`lamon, Yoqub bo`lamon, surnaychi Sharif mehtar, tanburchi Muhammad Yoqub Xarratov, Usta Xudoyberdi, Niyozxo`jalar katta xissa qo`shishgan. Xorazmga garmonchilardan Safo Mug`aniy, Xo`za Otajonov, Jumaniyoz Hayitboyev va boshqalar xalq orasida juda mashhur edilar.

To`rt damli va urma cholg`ular (karnay, surnay, doira, nog`ora) tuzilgan ansambllar Toshkent, Qo`qon, Farg`ona, Andijon, Buxoro, Xorazm va O`zbekistonning boshqa shaharlarida turmushga juda keng yoyilgan. Ular xalqning ijtimoiy hayotida (umumxalq an`anaviy bayramlarida) va oilaviy hayotda faol qatnashgan. Ayni paytda yakka cholg`u asbobi – surnayning imkoniyatlari hisobga olinib, mahsus ijrochilik repertuarlari (“surnay Irog`i”, “Surnay Dugohi”, “Surnay Qalandariy”, “Surnay navosi” kabilari) anchagina shakllangan edi.

Bu ansambllardan tashqari nay, qo`shnay, chang, dutor, tanbur, g`ijjak, doiralardan iborat boshqa tipdagi o`zbek xalq cholg`ulari ansambllari ham mavjud bo`lgan. Odatda bunday ansambllarga qo`shiqchi va o`yinchi (bachcha) kirgan. Ular choyxonalarda, to`ylarda, bazmlarda xizmat qilishgan. Bunday musiqachilarni xalqda “otarchi” deb atashgan. Bu ansambllar “Karimqul Begi”, “Pok”, “Qashqarcha”, “Latifa”, “Mustahzod”, “Suvora”, “Yalla”, “Dilxiroj”, “Bayot”, “Munojot”, “Jonon”, “Tanovor”, “Taron”, “Ufor”, “Ufori mushkiloti segoh” kabi ashula va raqs kuylaridan iborat turli repertuarlarni ijro etishgan. Bunday ansambllarning choyxonalarda o`tkazgan konsertlar berishgan, xonanda va sozandalarning ijrochilik mahoratlarini namoyish etuvchi musobaqalar o`tkazishgan. Bir vaqtning o`zida yoshlarning ustozlari ularni sinovdan o`tkazishgan. Sinov natijalariga ko`ra, ijrochilarning eng yaxshilari shirkat azolariga tavsiya etilib, ansambl tarkibiga kiritilgan. O`zbek xalq cholg`ularini

chalishga o`rgatish usullari musiqa asarlarini og`zaki uzatish an`analariga asoslangan. Ustoz kuyni og`zaki yoki cholg`uda ijro etgan, shogrd esa uni yodda saqlab qolishi kerak bo`lgan.

II-BOB MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA O'ZBEK XALQ

CHOLG'ULARINI TAKOMILLASHTIRISH SAN'ATI

Musiqqa cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish ularni yangi texnologiya asosida, muayyan konstruktiv o'zgartirishlar kiritish bilan yasashni anglatadi. Undan asosiy maqsad tovush (ohang) xususiyatlarini yaxshilash, cholg'ularda yangi texnik imkoniyatlar yaratish, tembr (tovush tusi) nozikliklariga erishish, o'n ikki bosqichli ravon sur'atlarda bo'lingan xromatik tuzilmalarni joriy etish, tovush qatorlarini kengaytirishdir. Demak, rekonstruksiya bo'lingan musiqa cholg'ularini takomillashtirish cholg'ularni mustahkamligini, chidamliligini, ayrim qismlarning sezgirligini oshirishni, tovush (ohang) hosil qilish sifatini zamonaviy ijrochilikning yuksak texnik va badiiy talablariga javob bera oladigan darajada yaxshilashni anglatadi.

Musiqqa madaniyatining umumiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib cholg'ularni takomillashtirish, xalq ijrochilik san'ati rivoji uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilikning rivojlanishi bilan birga xalq cholg'ulari ham qiziqish kuchaydi. Bu davrga kelib hamma regionlarda xalq cholg'ulari orkestri va ansambllarining turli xillari shakllandi. Xalq cholg'ularining asosiy tiplari barqarorlik kasb etdi. Bu esa o'z navbatida ularni takomillashtirish yo'llarini ilmiy ravishda izlashga olib keldi.

Ilk bor 1887-yilda V.V. Andreyev (1861-1918) xalq cholg'ularini takomillashtirish va xalq cholg'ulari orkestri tuzish g'oyasi bilan chiqdi. Iqtidorli musiqa ustalari V.V. Andreyev dastlabki xromatik balalayka, keyinroq esa uning pikkolodan kontrabasgacha bo'lgan orkestrdagi turdosh hillarini yasadi. Xalq balalaykasi 12 bosqichli sur'atlarga bo'lingan tovush qatorli konsert cholg'usiga aylandi.

20-yillar o'rtalarida taniqli arman yozuvchisi V.G. Buni Erevanda rekonstruksiya qilingan xalq cholg'ularidan iborat ansambl tuzdi. Uning tarkibiga

tutek, duduk, zurna, soz, tor, kemoncha turkumlari va urma zarbli cholg'ular kirgan. 1934-yilda orkestr O'zbekiston shaharlari bo'ylab safarda bo'ldi. Orkestr rahbari V. Buni San'atshunoslik ilmiy-tatqiqot institutida xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish tajribalari bilan o'rtoqlashadi. Qozoq bastakori, cholg'ushunos olim A.K. Jubanov ham qibizning turdosh oilasi xromatik do'mbira, daupaz, kichik baraban va uchburchak turkumlardan tuzilgan rekonstruksiya qilingan orkestr tuzdi (1934).

Bastakor Uzeir Xojibekov radio qo'mitasi qoshida faoliyat ko'rsatgan nota asosidagi birinchi Ozarbayjon xalq cholg'ulari orkestrini tuzdi. Orkestr komancha, tor, duduk (balaban), zurna, def (doira), nog'ora kabi cholg'ulardan iborat bo'lib, uning badiiy rahbari va dirijyori Uzeir Xojibekovning o'zi edi.

Qardosh xalqlar musiqasi tatqiqotchisi V.M. Belyayev o'zining "O'zbekistonning cholg'u asboblari" kitobida (Maskva, 1933) boy o'zbek xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish zarurligi muammosini ko'tarib chiqdi. U hozirgi paytda universal nota yozish vositasi sifatidagi Ovropa nota yozuvi asosida o'zbek musiqacha cholg'ularining standart tuzilishini aniqlashni taklif etdi.

O'zbek xalq cholg'ulari xilma-xil bo'lganligi uchun uni takomillashtirish nihoyatda qiyin vazifa edi. Bu nihoyat uzoq davom etgan va murakkab jarayon bo'ldi. Shu sababli ham xalq cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish, shuningdek, ko'povozli ansambl va orkestrlar tuzish bir necha o'n yillab davom etdi. An'anaviy cholg'ularning eski namunalari o'rniga zamonaviy ijrochilikning yuksak talablariga javob bera oladigan yangi, zamonaviyroq namunalari paydo bo'ldi. Yangi namunalari paydo bo'lgach, mavjud musiqacha cholg'ularini yanada takomillashtirishga urinishlar bo'ldi. Chang, g'ijjak kabi cholg'ularga qo'shimcha torlar qo'shilgach (qo'yilgach), bu ularning tovush (ohang) doirasini anchagina kengaytirdi. Ko'pincha g'ijjak o'rnida uning vertikal halati saqlangan holda to'rt torli skripka qo'llanila boshlandi. 20 va 30-

yillarning boshlarida musiqa cholg'ulari ustasi Usta Usmon Zufarov (1899-1981) ko'plab dutor, tanbur, g'ijjklarning turdosh oilasini yaratgan. Matyusuf Xarratov changni takomillashtirish ustida sabot bilan ishladi. O'sha paytda mavjud chang kichik diapazon va diatonik tovush qatorga ega bo'lib, unda professional bastakorlar asarlarini ijro etish imkoni ancha mushkul edi. Izlanishlar natijasida M. Xarratov changning yuqori registrini qo'shimcha torlar va xarraklar xisobiga kengaytirdi. Bu o'zgarishni changchilar ma'qullashdi. Boshqa bir yirik xalq sozandasi, O'zbekiston radiosi qoshidagi xalq cholg'ulari milliy ansamblining rahbari Yunus Rajabiy Usta Usmon Zufarov bilan hamkorlikda dutor-bas (katta dutor), g'ijjak bas (katta g'ijjak), g'ijjak alt namunalarini yaratdilar. Bu cholg'ular unison ansambl tarkibiga kiritildi. Bu hol ansambl tovush kengligini orkestrnikiga yaqinlashtirish imkoniyatini berdi.

Bu bilan o'zbek xalq cholg'ulari rekonstruksiya qilish va takomillashtirish bo'yicha maxsus ustaxonalar ochish boshlandi. Namangandagi musiqa ustaxonasi taniqli xalq sozandasi Usta Ro'zmat Isaboyev (1885-1964) boshchilik qildi. U ijrochilar tomonidan keng qo'llangan bir necha yarim xromatik chang yasadi. Buxoroda dutor, tanbur, afg'on rubobini takomillashtirish ustida Usta Hojiota, Usta Tohirjon Davlatov, Usta Najmiddin Nasriddinov, Usta Ma'rifjon Toshpo'latovlar ishlashdi. Toshkentda qo'shnay va surnayni taniqli sozandalar Xayrulla Ubaydullayev, Usta Qayum surnaychi takomillashtirishga urinishdi.

To'xtasin Jalilov O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari unison ansambl tarkibiga turli o'lchamdagi g'ijjak turdosh oilalarini kiritdi.

Shunga qaramay, o'zbek musiqa asboblarini takomillashtirish yo'lidagi dastlabki urinish va harakatlar muammoni asosan hal qilmasa ham ishni muayyan darajada ilgari siljitdi. 30-yillarning o'rtalaridan boshlab o'zbek cholg'ularini sistemali tarzda takomillashtirish ishlari qizg'in boshlandi. A.I. Petrosyans rahbarligi ostida bir guruh soz ustalari Usta Usmon Zufarov, V.A. Ramanchenko,

A.A. Kevxoyans, S.E. Didenko, V.V. Andreyevning tajriba va ijodiy yutuqlariga tayanib, dutor va tanburni rekonstruksiya qilishga kirishdilar. Asos sifatida sof yarimton hosil qiluvchi, yani xromatik teng yarim tovush qatoriga ega bo`lgan o`n ikki bosqichli ravon sur`atlarga bo`lingan tovush qator qabul qilindi. Keyinroq g`ijjklarning kvarta, kvinta sozli turkumi yaratildi, ruboblar takomillshtirildi, Prima (kichik) rubobi ixtiro qilindi.

Yangi musiqa chlg`ulari avvalliga A.I. Petrosyans tashabbusi bilan Toshkent musiqa bilim yurtida tashkil etilgan o`quv cholg`u orkestrida sinaldi. O`zbekiston Davlat filarmoniyasining u rahbarlik qilgan o`zbek xalq cholg`ulari orkestri esa cholg`ularni rekonstruksiya qilishda haqiqiy tajribaxona vazifasini o`tadi. Yangi tipdagi orkestr tuzilganidan boshlab (1938 yil noyabr) ilmiy tajriba ishlari o`zbek davlat filarmoniyasiga yuklatildi.

Rekonstruksiya qilingan dastlabki o`zbek xalq cholg`ulari orkestri quyidagi 24 cholg`udan:

Top I	Fortepiano
Tor II	Trubalar
Qashqar rubobi	Trambonlar
Afg'on rubobi	G`ijjak I
Tanbur	G`ijjak II
Nay	Katta g`ijjak
Chang I	G`ijjak – tenor
Chang II	G`ijjak – bas

dan iborat bolgan edi.

Orkestrning g'ijjakchi – konsertmeysteri S. Gabrielyan, g'ijjakchi S. Aliyev, bastakori G. Boskonyan qayta ishlagan o'zbek xalq kuylari orkestr repertuaridan katta o`rin egalladilar.

Shunday qilib, takomillashtirilgan o'zbek xalq cholg'ulari O'zbekiston Davlat felarmoniyasining yangi orkestridan o'ziga munosib o`rin egalladi. 1943-yilda San'atshunoslik instituti qoshida o'zbek musiqa cholg'ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish bo'yicha tajriba ilmiy-tatqiqoti (tajribaxonona) tashkil etildi, ayni paytda uning qoshida cholg'ulari muzeyi ochish haqida ham qaror qabul qilindi.

Tajribaxonona rahbari va ilmiy xodimlari etib V.A. Uspenskiy va V.M. Belyayev tayinlandilar. Yangicha namunalari, chizmalar ishlab chiqishga doir faol ish boshlab yuborildi, shular asosida o'zbek xalq cholg'ulari yasashga kirishildi. 1944-yildan boshlab tajribaxonona A.I. Petrosyans bevosita rahbarlik qila boshladi. Musiqa ustaxonasiga xalq ustalari U. Zufarov, Z. Sodiqov, I. Mahmudovlar taklif qilindi. An'anaviy xalq cholg'ulari asosida prima, sekunda, alt, namunaviy dutor, dutor-bas, dutor-kontrabas, dutor-alt (kamerli va mizrobli) 800 mm li dutorkabilarni o`z ichiga olgan dutorlar turkumi yaratildi.

G'ijjaklar ham soprano, alt, bas, kontrabas kabi yangi turdosh oila bilan boyidi. Keyinroq pikkolo, prima rubobi, qashqar rubobi, afg'on rubobi kabi turlardan iborat ruboblar turkumi yaratildi. Ayni bir vaqtda bolalar musiqa maktablari va havaskor cholg'u orkestrkariga mo'ljallangan musiqa asboblari: kichik dutor va kichik g'ijjak ham rekonstruksiya qilindi.

O'zbekiston xalq cholg'ularini takomillashtirish yo'lidagi tinimsiz izlanishlarni belgilab bergan quyidagi maqsad va vazifalar T. Vizgo va A. Petrosyansning "Uzbekskiy orkestr narodnykh instrumentov" (Toshkent, 1962, 22-23-betlar) deb nomlangan kitobda aks ettirilgan:

1. Torli-nohinli va torli-mizrobli cholg'ularga ravon sur'atlarga bo'lingan tovushqator o`rnatish;
2. O'zbek xalq cholg'ulari turdosh oilalkarini yaratish;

3. Cholg'ularni tovush tusi sifatini yaxshilash, tovush kuchini oshirish, har bir musiqa asbobining diapazonini kengaytirish;
4. O'zbek xalq cholg'ularining o'ziga hos tovush tusini va ohangdorligini saqlagan holda har bir cholg'uning barcha yashirin badiiy-ifodaviy imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida chalish texnikasini osonlashtirish;
5. Mustahkam va yuqori sifatli cholg'ularni ommaviy ravishda ishlab chiqarish maqsadida cholg'ularni yasashni butunlay yangi texnologiyasini ishlab chiqarish.

Cholg'u ustalari ijrochilar bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Cholg'uchilar, odatda dastlabki namunaviy musiqalarni sinab ko'rishar edi. Mualliflik hayati eng yaxshi namunalarni tanlab oladi va ommaviy ravishda ishlab chiqarishga tafsita qilar edi. Hayat tarkibida changchilar F. Sodiqov, F. Xarratov; g'ijjakchilar S. Gabrielyan, S. Aliyev, M. Asilov; dutorchilar G'. Qo'chqorov, A. Ilyosov, X. Azomov; rubobchilar M. Mirzayev, A. Baxronov, V. Borensenko, F. Vasileyev, G. Gregoryan; tanburchilar S. Taxalov, X. Rajabov kabi mohir ijrochilar ishtirok etganlar.

Musiqa san'atining obro'li vakllari orasida torli-mizrobli va torli-nohinli cholg'ularini ravon sur'atlarga bo'lishga xromatizasiya qilishga qarshi chiqqanlar ham bo'ldi. Ular o'z ma'ruzalarida milliy cholg'ular rekonstruksiya dan keyin go'yoki o'ziga hosligi va milliy hususiyatlarni yo'qotib qo'yishdan xavotirda ekanliklarini bayon etishdi. Ammo hayot ularni bu nuqtaiy nazarini rad etdi.

O'zbek musiqa madaniyati tarixida nodir xodisa yuz berdi. Cholg'ular tom manoda xalqchilik kasb etdi. Bugunga kelib takomillashtirilgan va rekonstruksiya qilingan o'zbek xalq cholg'ularidan hamma yerda—konsert estradasida turli ko'rik konkurslarida, badiiy havaskorlik jamolarida keng foydalanilmoqda. Og'zaki an'analarga asoslangan professional ijrochilar ham shu cholg'ulardan foydalanmoqda. O'zbek san'atidagi bu yangi hodisani ta'tiflab T. Qori-Niyoziy shunday yozgandi "O'zbek xalq cholg'u asboblarni rekonstruksiya qilish ularning akustik xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi hamda ularni nota yozuvi bo'yicha chalishni osonlashtiradi. Rekonstruksiya qilingan cholg'ulardan o'zbek

ijrochiligining o`ziga hos uslubini buzmasdan nota yozuvi bo`yicha har qanday asarni ijro etish mumkin. Bu muhim prensipial ahamiyatga ega”.

1943-yilga kelib xalq cholg`ularini rekonstruksiya qilish va takomillashtirish bo`yicha o`ziga hos tajribaxona sifatida O`zbekiston felarmoniyasining cholg`u orkestri 45 ijrochini o`z ichiga oldi. Endilikda rekonstruksiya qilingan cholg`ularning 5 mustaqil guruhidan tashkil topgan cholg`ular shakllandi:

-Yog`och damli cholg`ular: nay pikkolo (kichik), nay I, II qo`shnay I, II, surnay;

- Torli-urma cholg`ular: chang I, II, tanburlar;

- Torli-nohunli (mizrobli) cholg`ular, rubob-premalar I, II, qashqar ruboblari I, II, afg`on ruboblari I, II, dutorlar, bas va kontra-bas dutorlar;

- Urma zarbli cholg`ular; nog`ora, doira, safail. O`zbek milliy cholg`ularidan tashqari bu guruhga simfonik orkestrning uchburchak, (tre ugolnik) tarelka, buben, litavra kabi cholg`ulari kirgan;

- Torli-kamonli cholg`ular: g`ijjaklar I, II, alt, bas, kontrabas g`ijjaklar.

50-yillarda sinov tajribaxonasi Qirg`iziston, Turkmaniston, Qoraqalpog`iston xalq musiqa cholg`ularini ham rekonstruksiya qilindi va takomillashtirildi. Qirg`iziston uchun qo`bizlar: prima, sekunda, alt (pardali va pardasiz) bas va kontrabas: mizrobli qo`bizlar: prima, alt, tenor; torli-kamonli cholg`ular–kiyaklarni turdosh oilasi ham tayyorlandi. Turkman musiqa cholg`ularini rekonstruksiya qilish an`anaviy va mizrobli turkman dutorlarining turkumining yaratilishiga olib keldi. Qoraqalpog`istonda–qoraqalpoq dutorlar turkumi, shuningdek, yangi, mizrobli qoraqalpoq dutori paydo bo`ldi. Shu rekonstruksiya qilingan cholg`ular asosida qoraqalpoq xalq cholg`ulari orkestri ham tuzildi. (Bu cholg`ularning konstruksiyalarini A.I. Petrosyans va S.E. Didenkolar ishlab chiqqan). O`rta Osiyo va Sharq mamlakatlari musiqa cholg`ularining evalyusiyasini chuqur o`rganish maqsadida sinov tajribaxonasi qoshida muzey tashkil qilindi. Cholg`ular muzeyi

hamon faoliyat ko`rsatmoqda. A.i. Petrosyansning tashabbusi bilan va bevosita rahbarligi ostida muzeyda xalq cholg'ularining 800 dan ortiq turi to`plandi. O`zbek cholg'ularidan tashqari bu yerda qardosh xalqlar shuningdek, Afg'oniston, Jazoir, Vetnam, Hindiston, Suriya kabi xorijiy Sharq xalq cholg'ulari taraqqiyoti tarixini o`rganish va tekshirish uchun material sifida ham, takomillashtirish obyekti sifatida ham ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Toshkent xalq cholg'ulari muzeyi tashkil etilganidan bo`yon uni 10.000 dan ziyot kishi tomosha qildi. Muzeyning takliv va mulohozalar daftariga ko`plab taniqli musiqachi olimlar o`z fikr-mulohaza va taassurotlarini yozib qoldirishdi. Quyida ulardan ba'zi birlarini keltiramiz.

“O`zbekiston xalq musiqasi cholg'ulari tajribaxonasi va muzeyida ko`rganlarimiz bizni hayratga soldi. Qardosh respublikalarning ko`plab san'at arboblari bu sohada o`zbek do'stlarimizdan ibrat olsa arziydi (I. Jinovich). Belorussiya xalq artisti, Belorussiya konservatoriyasining professori, 1955-yil, mart”.

“... Bizdan uzoqlashayotgan musiqa madaniyatini saqlab qolish katta ijtimoiy-siyosiy va ilmiy ahamiyatga molik ishdir. Bu yerda biz ildizlari uzoq o`tmishga taqaluvchi, qadimiy xalq musiqa an'analari qanday asrab-avaylash va diqqat bilan o`rganilayotganini hamda tadqiq etilayotganini, shu asosda zamonaviy cholg'ularni yaratilayotganini o`z ko`zimiz bilan ko`rdik”. A.N. Dmitriyev. San'atshunoslik doktori, Leningrad konservatoriyasining professori, 1961-yil, iyun.

O`zbek xalq cholg'ularida ijrochilik madaniyatining o`sishi, jahon klassik bastakorlari asarlarining o`zlashtirilishi, O`zbekiston bastakorlarining xalq cholg'ulari uchun maxsus asarlar yaratishdagi faol ijodiy faoliyati o`zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'atini yanada yuksalishi uchun muhim zamin bo`ldi. Shu bilan birga yuqori malakali ilmiy pedagogik va ijrochi kadrlarni puxta va mukammal qilib tayyorlash masalasini ham kun tartibiga qo`ydi.

O`zbek xalq cholg`ularida ijrochilik keyingi davrlardagi yuksalishi Toshkent konservatoriyasining faoliyati bilan chambarchas bog`langan.

1948-yildan boshlab mamlakatimizdagi musiqa oliy o`quv yurtlarida, shu jumladan M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat konservatoriyasida ham xalq cholg`ulari ijrochiligi bo`yicha ta`lim berish boshlandi.

50-yillarda xalq cholg`ularining asosiy turlarini turkumlash amiq belgilandi. Shundan bo`yon Respublikaning barcha musiqa bilim yurtlari ularda chalishni o`rgata boshladi. Bu cholg`ular quyidagilardir: damli cholg`ular–nay, nay-pikkola, qo`shnay, surnay, bo`lamon, torli-urma zarbli cholg`ular–chang, tanbur; torli-mizrobl va trli-nohinli cholg`ular –prima-rubobi, qashqar rubobi, afg`on rubobi, ud, dutor, dutor-bas, urma zarbli cholg`ular–doyra, nog`ora va sinfonik orkestrda qo`llaniladigan urma cholg`ular; kamoncha torli-g`ijjak, g`ijjak-alt, g`ijjak-bas, g`ijjak-kontrabas, bayan kabilardir.

Tanbur (an`anaviy)



Tanbur torli-chertma cholg`ular guruhiga kiradi. Uning kosasi uzunchoq shaklga ega boklib, o`yma ravishda ishlangan va yog`och deka (qopqoq) bilan qoplangan. Dastasi dutornikiga nisbatan uzun va yokgkon hamda ichak pardalar boglangan. O`zbekistonda asosan to`rt torli (ba`zan esa uch torli) tanburlar qo`llaniladi. U ham dutor singari xalqning sevimli cholg`usi hisoblanadi. Tanburda

tovush o`ng qo`lning ko'rsatgich barmog`iga kiyiladigan maxsus noxun bilan torlarni chertish orqali hosil qilinadi.

Cholg'u shuningdek tojik, eron va uygkur xalqlari orasida ham keng tarqalgan. Darvish Ali Changiy (XVII asr) o`z risolasida tanburni barcha cholg`ularning ustozlari deb atagan.

Tanbur professional musiqachilar orasida keng tarqalgan bo`lib, unda asosan o`zbek klassik kuy va qo`shiqlari hamda maqomlar ijro etiladi. Bog`lama pardalarning balandligi va torlarning boksh taqilganligi cholg`uda nola va qochirimlarni be`malol ishlatilishiga imkon yaratadi.

Og`irligi 1100 gr, uzunligi 1260 mm, eni 135 mm

Tanbur (zamonaviy)

Barcha torli-chertma cholg`ular singari tanburning ham shakli o`zgartirilmagan holda zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan. Natijada bog`lama pardalar o`rniga mustahkam ebonit pardalar o`rnatildi. Yog'och quloqlar mexanik quloqlar bilan almashtirildi.

Tanbur asosida uning prima, sekunda, alt va bas turlaridan iborat oilasi yaratildi. Shuningdek cholg'u xromatik tovushqatorga ega bo`ldi. Bu esa o`z navbatida tanburda nafaqat O`zbekiston kompozitorlarining asarlari balki boshqa xalqlar kuy va qo`shiqlarini ijro etishga imkon yaratdi.

Ushbu cholg`ularda ijro etganda yakka zarb, qo'sh zarb, rez, pitsikato hamda arpedjio usulidan foydalanish mumkin.

Tanbur kamer cholg`u hisoblanib, o`ziga hos nozik va mayin tembrga ega. Shuning uchun ham u past registrlarni qamrab olishiga qaramay bas cholg`u vazifasini bajara olmaydi.

Soz (an'anaviy)

Soz chuqur noksimon shakldagi kosa va bog`lama pardali dastadan iborat. Kosasi o'yma ravishda (tut yoki yong`oqdan) yasalgan bo`lib, yog'och deka (yel) bilan qoplangan. Kosaning yon tomonida doira shaklida rezonator mavjud. Ushbu

sozning dastasida o`n bir dona bog`lama pardalari bor. Bosh qismi dastaning davomi bo`lib, unda metall torlar taqilgan yog`och quloqlar mavjud. Cholg'u shuningdek Ozarbayjon, Dog`iston, Armaniston va Turkiyada keng tarqalgan. Unda asosan milliy klassik kuylar va an'anaviy qo`shiqlar ijro etiladi. U yakkanavoz sifatida hamda xalq cholg'ulari ansambllarida jo`rnavoz sifatida qollaniladi. Tovush mizrob bilan torlarni chertish orqali hosil bo`ladi. Sozda yakka zarb, qo`sh zarb, stakkato, pitsikato, rez va arpedjio usullarini qo`llash mumkin.

Soz (zamonaviy)

Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish natijasida sozning bog'lama pardalari o'rniga latun pardalar o'rnatildi. Kosasi qovurg`ali qilib yasala boshlandi. Diatonik tovushqatori xromatik tovushqatorga o`zgartirildi. Yog`och quloqlar mexanik quloqlar bilan almashtirildi. Uning asosida sozning prima va sekundadan iborat oilaviy turlari ham yaratildi. Bularning barchasi sozda nafaqat milliy kuy va qo`shiqlarni ijro etish, balki butun dunyo kompozitorlik ijodiyotini tarannum etish imkonini yaratdi. Soz yakkanavozlik bilan bir qatorda xalq cholg`ulari ansambllari tarkibida jo'rnavozlik vazifasini ham bajaradi. Sozda ham barcha mizrobli cholg`ular singari tovush chiqarish uslubi bir xil, ularga taalluqli bo`lgan barcha zarblar va ijro usullarini ham qo`llash mumkin. Soz shuningdek olti torli tanbur deb ham ataladi.

DUTORLAR OILASI



Torli-chertma cholg'ular guruhiga dutor prima, sekunda, alt, bas va kontrabas-lardan tashkil topgan dutorlar oilasi kiradi. Bularning barchasi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrini tashkil etish uchun yaratilgan.

Bu oilada eng yuqori registrni dutor prima egallaydi. Cholg'u o'quv jarayonida yakkanavoz va jo'rnavoz sifatida hamda o'zbek xalq cholg'ulari ansambli va orkestrlarida keng qo'llaniladi.

Dutor sekunda ovoz balandligiga qarab o'rta registrni qamrab oladi. Hozirgi kunda bu cholg'udan asosan dutorchilar orkestrida foydalaniladi.

O'rta registrga ega bo'lgan yana bir cholg'u bu-dutor alt bo'lib, u ham yakkanavozlik va jo'rnavozlik vazifalarini bajaradi.

Bu cholg'ularning barchasi ikkitadan torga ega bo'lib, ular kvarta oralig'ida sozlanadi.

Ovoz tarovati bo'yicha dutor bas past registrga ega. Unda yakka zarb, qo'sh zarb va rez maxsus yasalgan mizrob orqali, pitsikato esa o'ng qo'lning bosh barmog'i yostiqlik bilan ijro etiladi.

Eng past sado beruvchi cholg'u dutor kontrabasdir. Bu oilada dutor bas va kontrabasning to'rttadan tori bo'lib, ular o'zaro kvarta oralig'ida sozlanadi.

Dutor (an'anaviy)

Dutor o'zbek xalqining eng sevimli torli-chertma cholg'ularidan biri hisoblanadi. U katta noksimon shakldagi qovurg'ali kosa, yog'och deka va uzun ichak pardalar bog'langan dastadan iborat. Cholg'uning kosasi va qopqog'i tutdan, dastasi o'rikdan, bo'g'zi (kosa bilan dastani birlashtiruvchi qismi) esa yong'oq daraxtidan yasaladi. Qadimda dutorlar ham boshqa yog'ochdan yasaladigan cholg'ular singari o'yma ravishda yasalgan. Buxoro, Xiva va Qoraqalpog'istonda ikki qovurg'ali, Samarqandda to'rt qovurg'ali, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlarda o'n -o'n ikki qovurg'ali dutorlarni uchratish mumkin. Qovurg'a choklari esa ingichka suyak yoki yog'och piltalar (chiziqlar) bilan berkitilgan. Mazkur cholg'u 1948-yili usta

U.Zufarov tomonidan yasalgan. Uning kosasi 10 dona qovurg`adan iborat bo`lib, choklari suyak piltalar bilan berkitilgan. Dastasi va bosh qismi sadaf va suyakdan ishlangan naqshlar bilan bezatilgan. Bo`g`zi o`yma ravishda ishlangan bo`lib, unga yog`och o`ymakorlik san`ati orqali gul va bulbul tasviri tushirilgan. Qopqog`ida 14 dona sadolantiruvchi o`yiqalar mavjud. Dutor og`irligi 850 gr, uzunligi 1200 mm, kosa kengligi 210 mm.

Dutor tenor (zamonaviy)

Cholg`uni zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirish uchun an'anaviy dator asosida dator tenor yasalgan. Buning natijasida datorning shakli o'zgarmadi, lekin bog`langan pardalar o'rniga mustahkamlangan (yog`och, ebonit) pardalar o`rnatildi. Ipaktorlar kapron torlar bilan, yog`och quloqlar mexanik quloqlar bilan almashtirildi. Shuningdek dator xromatik tovushqatorga ega bo`ldi.

Bu esa o`z navbatida cholg'uda nafaqat o`zbek xalq kuylari, balki O`zbekiston kompozitor-larining maxsus asarlari hamda jahon mumtoz musiqalarini ijro etishga imkoniyat yaratdi. Dutor boshqa cholg`ulardan zarbga boyligi bilan ajralib turadi. Cholg`uda ijro etish uchun o`ng qo`l panjalari hamda ko'rsatgich va bosh barmoqlar ishtirok etadi. U yakkanavoz hamda jo'rnavoz sifatida ansambl va orkestrlarda qo`llaniladi.

Nay



Nay qadimdan O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekiston musiqa madaniyatida sevimli cholg`u sifatida qollanilib kelinmoqda. Ular yasalishiga ko'ra turlicha

nomlanadi. Masalan: g'arov (batbuk) nay; yog'och nay va mis nay; Eng kop qo'llaniladigani yog'och va g'arov naylaridir.

Cholg'u silindr shaklida yumaloq ichi govak bolib, diametri 20-30 mm, uzunligi 450-520 mm. bo'ladi. Cholg'u diatonik tovushqatorga ega. Nayda ijro etish uchun o'ng va chap qo'llarning uchtadan barmoqlari ishlatiladi. Ulardan bosh qismidagi bitta alohida teshik puflash «Labium» uchun, qolganlari esa barmoqlar bilan bosib tovush chiqarish uchun qollaniladi. Ovozning baland pastligiga qarab teshiklar barmoqlar bilan butunlay yoki yarim berkitiladi. Nayda o'zbek xalq kuy va qoshiqlari hamda mumtoz musiqalarini ijro etish mumkin. Namoyish etilayotgan nay bambukdan yasalgan bolib, muzeyda eksponat sifatida saqianmoqda.

TORLI-KAMONLI CHOLG'ULAR OILASI

Zamonaviy ijrochilik talab darajasiga moslashtirilgan g'ijjak va qo'biz asosida g'ij-jak prima, alt, bas va kontrabaslardan tashkil topgan g'ijjaklar oilasi hamda qo'biz prima, alt, bas va kontrabaslardan tashkil topgan qo'bizlar oilasi yaratildi. Bu cholg'ular oilasini yaratish jarayonida usta-konstruktorlar simfonik orkestrning kamonli cholg'ularini yaratishdagi ish tajribasiga tayanganlar.

Shuning uchun ham simfonik orkestrning kamonli cholg'ular guruhi va o'zbek xalq cholg'ulari orkestrning kamonli cholg'ulari guruhining tarkibi bir-biriga o'xshaydi. Ularning sozi, menzurasi, diapazoni, zarblari va ijro uslubi hamda ovoz chiqarish uchun qo'llaniladigan kamoni ham bir xil.

Kamonni ushlab holati va o'ng qo'l harakati ham simfonik orkestrning kamonli cholg'ular oilasi bilan birdek.

Bu cholg'ular guruhining zarblari juda xilma-xil bo'lganligi hamda ijro imkoniyatining kengligi tufayli ular orkestr tarkibida asosiy vazifalardan birini bajaradilar.

Hozirgi kunda o'quv jarayonida g'ijjak prima va alt hamda qo'biz bas va kontrabaslar qollaniladi.

G'ijjak (an'anaviy)



Zamonaviy g'ijjakning tashqi korinishi an'anaviy turi bilan bir xil. Undan farqli ravishda dastaning yuqori qismi ingichka, pastki qismi yo'g'onroq, yuza qismi esa yassi qilib ishlangan. Shu bilan birga kamoni ham skripka kamoni bilan almashtirilgan. Zamonaviy g'ijjaklar kosasi yog'ochdan qovurg'ali va o'yma tarzda yasaladi. Amaliyotda asosan to'rt (metall) torli o'yma g'ijjaklar ko'proq qo'llaniladi.

G'ijjakda ijro etish uchun chap qo'lning ko'rsatgich — 1, o'rta — 2, nomsiz — 3, jimjaloq — 4 barmoqlari ishlatiladi. Ochiq torlar 0 raqami bilan belgilanadi.

G'ijjakning zarblari va ijrochilik imkoniyatlari rang-barangligi tufayli u yakkanavoz, o'zbek xalq cholg'ulari ansambli va orkestrlari tarkibida asosiy vazifani bajaruvchi jo'rnavoz sifatida qo'llaniladi. U torli-kamonli cholg'ular ichida ijro imkoniyatlari (texnika)ning boyligi bilan ajralib turadi.

Eksponat sifatida namoyish etilayotgan cholg'u 1995-yili usta S.Qodirov tomonidan yasalgan. Konstruktorlar: A. Petrosyans va S. Didenko.

G'ijjak (zamonaviy)

G'ijjak O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon va boshqa sharq mamlakatlarida keng tarqalgan torli kamonli cholg'ular oilasiga kiradi. U dumaloq (sharsimon) shakldagi yog'och kosa, yuqori qismi yo'g'on va pastki qismi

ingichkalashib boʻlgan kalta yumaloq dasta hamda bosh qismidan iborat. Uchta poʻlat tori bor. Dastasi oʻrikdan, kosasi oʻyma ravishda tutdan yasalgan boʻlib mol terisi bilan qoplangan, quloqlari (3) yogʻoch (oʻrik) dan. Torlar uchun xarak ham yogʻoch (oʻrik)dan tayyorlangan. Gʻjjak kosasi tagidan uzun metall shtift chiqarilgan boʻlib u cholgʻuni yerga tirab qoʻyish uchun qoʻllaniladi.

Avvallari gʻijjaklar ikki va uch torli boʻlib, kosalari qovoq va kakos yongʻogʻidan yasalgan, keyinchalik esa toʻrt torli turlari ham paydo boʻldi.

Gʻijjaklarda asosan quloqlari va bosh qismi bezatilgan. Shuning uchun dumaloq, toʻlqinsimon va boshqa xilma-xil shakldagi quloqlarni uchratishimiz mumkin.

Sato



Sato tanbursimon cholgʻular oilasiga kiradi. Uning toʻrtta asosiy (metall-latun) va toʻrtta aks sado beruvchi, dastaning yon tomonidagi quloqlarga taqilgan yordamchi torlari bor. Qopqogʻining oʻrtasida bir dona naqshinkor, chetlarida ikki dona “tomchi” koʻrinishidagi rezonatorlar mavjud.

Cholgʻuda asosan tovush kamon orqali hosil qilinadi, baʼzi paytlarda esa noxun bilan ham chalinadi. Satoning pardalari (14)baland, torlari esa boʻsh taqilganligi sababli unda glissando va vibrato kabi melizm (bezak)larni ijro etish qulay. Shuningdek legato, portamento, detache, stakkato kabi zarblar qoʻllaniladi.

Satoda ham tanbur singari asosan milliy musiqamiz va maqomlarimiz ijro etiladi, shuning uchun ham u oʻzbek xalqining qadimiy ijrochilik anʼanalarining davomchisi hisoblanadi.

RUBOB



Osiyoning ayrim xalqlari (xususan o`zbeklar, tojiklar) o`rtasida qadimdan keng tarqalgan torli tirnama cholg`u asbobi. O`rta osiyo xalqlariga nisbatan janubiy Xitoyning Sintzyan viloyatida yashovchi uyg`urlar o`rtasida keng tarqalgan turi Qashqar Rubobi deyiladi.

Buxoro, Tojikiston va Afg`onistonda tarqalgan Rubobning yana bir turi – Afg`on rubobi, tojik rubobi yoki Buxoro Rubobi deb ham ataladi. Bunda asosiy tordan tashqari rezonans beruvchi qo`shimcha torlar ham bor.

2.2 ZAMONAVIY CHANG CHOLG'USI IJROCHILIGINING SHAKLLANISHI.

CHang- sozi ham juda qadimiy bo‘lib, torli urma musiqa asboblari guruhiga kiradi. SHarq mutafakkirlarining ilmiy va badiiy asarlarida, tarixiy manbaalar va etnografik ma’lumotlarda yozilishicha changning IX-X asrlarda ham mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Masalan, Abu Nasr Farobiyning “Katta musiqa kitobi” (“Kitob al-musiqa al-kabir”) asarining ikkinchi qismi musiqa cholg‘ulariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, shohruh, qonun sozlari qatori chang asbobi haqida ham ko‘pgina fikrlar bildirilgan. Uning yozishicha, o‘sha davrdagi changning 15 ta tori bo‘lgan, ular diatonik tarzda sozlangan va ikki oktava oralig‘idagi tovushqatorga ega bo‘lgan. CHang yakka soz sifatida alohida ajralib turgan va ansambl ijrosida ham ishlatilgan. SHuningdek, chang sozi haqidagi ma’lumotlarni Ibn Sino, Safiyuddin Urmaviy, Qutbiddin ash-SHeroziy, Abdurahmon Jomiy, Al Husayniy va Abduqodir Marog‘iy asarlarida ham uchratish mumkin.

Xususan, Darveshali CHangiyning “Ilmi advor” (“Bilimlar kaliti”) risolasida musiqa cholg‘ulari haqida boy, qimmatli fikrlar birdirgan. U changni juda qadimiy cholg‘u asbob ekanligi, uning etti maqom ijrosi uchun yigirma olti tori va etti pardasi bo‘lganligi hamda undan taralayotgan musiqa orqali kasallarni davolashda foydalanilganligini yozadi. Bundan tashqari chang soziga ulug‘ shoirlarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar ham munosabat bildirganlar. Navoiy chang soziga bag‘ishlab o‘zining “Sab’ai sayyor” dostonida quyidagi misralarni yozgan:

Sarv qad olsa erdi maydin kom,
Nastaranni chu aylabon gulfom
CHang olib torini tuzor erdi,
Lek jon rishtasin uzor erdi.

Demak, chang sozining ta’rifi keng tarqalgan cholg‘u sifatida ko‘plab adabiy manbalarda ham qayd etiladi. CHang cholg‘usini Firdavsiy – Ozoda, Navoiy – Dilorom, Nizomiy esa Fitna ramzlari asosida tasvirlaganlar. Xullas o‘sha

davridayoq chang sozining mohir ijrochilari o'ziga xos ansambllar tuzib undan foydalanganlar. CHang trapetsiyasimon ko'rinishga ega bo'lib, ustiga yupqa yog'och qopqoq elimlangan va uning ustidagi po'lat simlar uzunasiga tortilgan bo'ladi.

Keyingi yillarda, ya'ni XIX asrining 30 yillaridan boshlab chang sozining ham ijro imkoniyatlarini kengaytirish va ulardan turli zamonaviy ijroda jumladan, yakkanavozlikda va ansambl hamda orkestrlarda foydalanish maqsadida ushbu asbobning ham yangi avlodini yaratish va ularni qayta ta'mirlashga ehtiyoj seziladi. Natijada chang sozining pikkola, prima, tenor hamda bas kabi turlari ixtiro qilinib, ulardan turli xil chang ansambli va orkestrlarini tuzish imkoni yaratildi. Qayta ishlangan chang sozlarining tovushqatori xramatik yarim tonlarga bo'lindi. Ijrochining o'tirib chalishi uchun vintlar vositasida oyoqlar yasaldi. Davomli sadoni to'xtatish uchun esa maxsus pedal o'rnatildi. U asosan bambukdan yasilib, maxsus rezinka kiydirilgan ikkita ingichka cho'pni torlariga urib chalish usuli bilan ijro qilinadi.

Pikkola changi- yangidan yaratilgan bo'lib, yuqori notalarni chalish uchun juda qulay bo'lgan sozdir. Uning ovoz kuchi **do** birinchi oktava tovushidan **lya** uchinchi oktava tovushigacha. Notalari skripka kalitida yoziladi. U asosan ansambl va orkestr uchun yozilgan musiqalar ijrosi uchun mo'ljallangan bo'lib, aniq va kuchli tovushga ega.

Prima changi-qayta ishlangan bo'lib, O'zbekiston va Tojikistonda keng tarqalgan xalq cholg'u asbobidir. Ta'mirlangan changning tovush kuchi ya'ni uning eng pastki ovozi bilan yuqorigi ovozi o'rtasidagi oraliq yanada kengaytirilib tovushqatori kichik oktavadagi **sol** notasidan uchinchi oktavadagi **sol** diezgacha etkaziladi.

Turli diametrli torlarni qo'llash yo'li bilan prima changining tovush kuchi oshirilib, umumiy tovushqatori 38 ta tovushgacha olib borildi. Uning torlari yuqori sifatli po'lotdan silindr shaklida silliq qilib yasalgan. Pastki registr tovushlari

uchun mis sim bilan o'ralgan torlar tortildi. Prima changida turli intervaldagi qo'sh notalarni erkin ijro qilish mumkin.

Tenor changi-yangidan takomillashtirilgan soz bo'lib, tuzilishi prima changiga o'xshaydi. Ovoz hajmi (diapazoni) **sol** kichik oktava tovushidan **mi** uchinchi oktava tovushigacha. Tenor changida 40 ta tor bo'lib, ular juft qilib unison bo'yicha sozlanadi va 20 ta tovushni hosil qiladi. Notalari skripka kalitida yoziladi, ammo bir oktava past ovoz beradi. U orkestrda ko'pincha jo'r bo'luvchi soz sifatida ishlatiladi.

Bas changi- yangi yaratilgan soz bo'lib, pastki tovushlarni chalish uchun ishlatiladi. Notasi bas kalitida yoziladi, qanday yozilsa shunday ovoz beradi. CHolg'uning eng pastki notasi **do** katta oktava tovushidan eng yuqori ovozi **sol** kichik oktava tovushigacha. Bas changi ham ansambl va xalq cholg'u orkestrida keng qo'llaniladi.

SHunday qilib, yangi yaratilgan chang turlari aniq va kuchli ovozga ega bo'lib, umumiy tovush kuchi ya'ni eng pastki ovozi bilan yuqoridagi ovozi o'rtasidagi oraliq deyarli besh oktava (**do** katta oktavadan **lya** uchinchi oktavagacha) tovushlarini o'z ichida qamrab oladi. Barcha changlarning tovush yig'indisi yuqori texnik qulaylik va yorqin kuy ta'sir kuchiga ega. Bunday guruhning dinamik imkoniyati pianissimodan fortissimogacha bo'lgan musiqiy asarlarni mohirona ijro etish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa chang sozlaridan ansambl va orkestrda sifatli foydalanish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda chang sozi ijrochiligida o'zining munosib hissasini qo'shgan va qo'shib kelayotgan mohir sozandalar Faxriddin Sodiqov, Ahmad Odilov, Fozil Xarratov, Rustam Ne'matov, Tilash Ho'jamberdiev, Fazilat SHukurova, A.Lutfullaevlar nomini faxr bilan tilga olish mumkin.

Bu cholg'uda o'zbek xalq kuylari bilan bir qatorda barcha qardosh xalqlar musiqa asarlarini, shuningdek, chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan barcha asarlarni ham mohirona ijro etish imkoniyatiga ega.

Demak, torli urma sozlar ham o'zbek musiqa madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan cholg'ular sirasiga kiradi.



Zamonaviy chang cholg'uchisi ijrochilarining shakllanishi F.Sodiqov, P.Raximov, R.Normuhamedov, O.G'ofurov, Sh.Akromov, A.Odilov, F.Xarratov, R.Nig'matov, F.Shukurova, T.Sobirov, B.Aliyev, T.Xo`jamberdiyev, T.Mahmudov kabi taniqli changchilar nomi bilan bo`g`liq.

Faxriddin Sodiqov (1908-1978) taniqli changchi kuychi–bastakor, ajoyib ashula va cholg'u kuylarining muallifi. U iste'dodli nihoyatda o`ziga xos va ko`p qirrali ijodkor edi. U 20-yillarda avval Toshkent xalq konservatoriyasida, songra Toshkent musiqa texnimumida o`qigan. 1939-yilda Abduqodir Ismoilov (nay) va Ahmadjon Umirzoqov (qo`shnay) bilan birga xalq cholg'ulari ijrochilarning Butunittifoq tanlovida qatnashgan. U konkursda chang uchun yozilgan “ Gulnor ” nomli pesasini (o`zi yaratgan) va “Tanovar”, “Qari navo” kabi o`zbek xalq kuylarini ijro etib, ikkinchi o`rinni egallagan va konkurs diplomi bilan taqdirlangan. F.Sodiqov 1942-yilda felarmoniya tomonidan tashkil qilingan Birinchi front birigadasining rahbari va qatnashchisi bo`lgan. 1946-48-yillarda u konservatoriyaning bastakorlik fakultetining tayorlov bo`limida ishlagan. 1948-yildan O`zbekiston radiosining xalq cholg'ularining milliy ansamblida changchi

bo`lib ishlagan, 1979-yilgacha maqomchilar ansambliga bevosita rahbarlik qilgan. F.Sodiqovning changchi sifatidagi repertuari rang-barang bo`lgan. Uning ijodida “Guljamol”, “Garduni segoh”, “O`yin dugohi” kabi xalq kuylari T.Jalilovning “Oynasa” asari va F.Sodiqovning o`zi chang uchun yaratgan “Vatan marshi”, “Raqqosa” asarlari muhim o`rin egallagan. F.Sodiqovga 1972-yilda O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi unvoni berilgan. 1971-78-yillarda F.Sodiqov konservatoriyada chang sinfi bo`yicha bir yil o`qigan, konservatoriyaning Sharq musiqasi kafedrasida maxsus turkum bo`yicha saboq bergan.

Fozil Matyusupovich Xarratov (1926-1971) taniqli changchilardan biri edi. Musiqa bilimi va ijrochiligi bo`yicha ilk saboqni o`z otasi mashhur changchi Matyusov Xarratovdan oldi. 1942-yilda F.Xarratovlarning oilasi Toshkentga ko`chib keladi. Fozil bu yerda avval Toshkent davlat serkining aralash musiqa ansamblida, so`ngra O`zdavlat felarmoniyasiningashula va raqs ansamblida ishlaydi. U 1950-55-yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida A.Odilovning chang cholg`uchisi sinfida o`qiydi. Keyin bir oz vaqt konservatoriyada dars beradi. Uning shogirdlari orasida R.Ne`matov, F.Shukurova, T.Xo`jamberdiyev kabi taniqli ijrochilar bor. F.Xarratov Moskvada bo`lib o`tgan Yoshlar va talabalarning VI Jahon fistevalining sohibi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artest (1964). U “Hurmat belgisi” ordini sohibi.

Komil Odilov (1926-yilda tug`ilgan) taniqli qo`shnaychilar orasida yanada yaqqol ko`zga tashlanib turadi. U o`zining yorqin ijrochilik san`ati bilan O`zbekiston davlat filarmoniyasi xalq cholg`ulari orkestrining ijodiy faoliyatiga sezilarli hissa qo`shdi. Qo`shnaychi mayin va haroratli ovozga ega.

K.Odilov 1949-54-yillarda Toshkent konservatoriyasida klarnetchi K.Azimov sinfida o`qidi. So`ngra O`zdavlat Filarmoniyasiningo`zbek xalq cholg`ulari orkestrida konsertmeyster bo`lib ishladi (1943-79). Hozirda keksalik gashtini surmoqda.

O'zbekistonda g'ijjak cholg'usi faqat yakka cholg'u sifatidagina keng tarqalmay, balki g'ijjakchilar kvarteti va ansambllari ham vijudga keltirildi. Toshkent konservatoriyasida g'ijjak sinfi yetakchi sinflardan biri hisoblanadi.

Obid Muhamedovich Holmuhamedov (1928-1990) g'ijjak ijrochiligi san'atiga va bu sohadagi ta'limning takomillashishiga katta hissa qo'shdi. U konservatoriyani g'ijjak sinfi bo'yicha tamomlagan dastlabki bitiruvchilardan. I.P.Blagoveshchenskiyning shogirdi bo'lgan. O.Holmuhamedov g'ijjakda ilk bor murakkab skripka asarlarini ijro etgan sozanda ijrochilardan. A.Holmuhamedov 20-yillardan oshiqroq vart davomida O'zbekiston davlat filarmoniyasi xalq cholg'ulari orkestrida konsertmeystir va yakka navoz sozanda bo'lib xizmat qilgan (1946-1967). U 1951-yildan beri konservatoriyada g'ijjak va g'ijjak-alt ijrochiligi bo'yicha avval o'qituvchi so'ngra dosent sifatida ishlagan. Uning shogirdlari orasida Shuhrat Yo'ldoshiv, Botir Rasulov kabi taniqli g'ijjakchilar bor.

Murod Ibragimovich Toshmuhamedov (1939-yilda tug'ilgan) mashhur g'ijjakchilar orasida alohida ajralib turadi. U Toshkent Konservatoriyasining tugatgan. Ustoz O.M.Holmuhamedovdan, O'zbek xalq cholg'u ijrochilarining I Respublika ko'rigining sohibi. 1961-yilda konservatoriyada g'ijjak va g'ijjak-alt ijrochilik bo'yicha dars beradi. U kamoncha-torli cholg'ular bo'linmasining mudiri (1974), dosent. Uning shogirdlari orasida xalq cholg'ulari ijrochiligi bo'yicha o'tkazilgan O'zeir Hojibekev nomidagi I Respublikalar aro konkursning sohibi Qahramon Nazarov, Respublika konkursining sohibi Jo'raboy Saidovlar bor. M.Toshmuhamedov "G'ijjak navolari" to'plamining tuzuvchisi g'ijjak ijrochiligi bo'yicha bir qator maqolalar muallifidir.

Obduvali Jalolovich Umarov (1942-yilda tug'ilgan). O.M.Holmuhamedov sinfida ta'lim olgan g'ijjakchi. U Toshkent konservatoriyasini tugatgach, xalq cholg'uklari ijrochiligi kafedrasida g'ijjak sinfi bo'yicha o'qituvchi bo'lgan. Uning shogirdlari orasida Olimboy Holmatov, Nosir Alimaksimovlar bor. Ular A.Umarov o'tkazgan mashg'ulotlarni minnaddorchilik bilan eslashadi.

Shuhrat Yo`ldoshiv (1948-yilda tug`ilgan) g`ijjak cholg`usida zavqli, muloyim va nafis kuychanligi bilan ajralib turadigan guruh mansub ijrochilaridan biridir. Uning g`ijjak ijrochiligi uchun yorqin, jo`shqin, shijoatli uslub xosdir. M.Ashrafiy bir vaqtlar: “Men ajoyib g`ijjakchi Shuhrat Yo`ldoshiv g`ijjak chalganda behat huzurlanaman. U san`at osmoning yorqin yulduzlaridandir” degan edi. Sh.Yo`ldoshiv Toshkent konservatoriyasini (1970) bitirgan. U xalq cholg`u ijrochilarining Butunittifoq (Voronej 1973) va Respublika tanlovlarining g`olibi. O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist.

Botir Rasulov (1948-yilda tug`ilgan). Toshkent Davlat Konservatoriyasini g`ijjak (1971) va opera simfonik dirijyorligi (1979) ixtisoslari bo`yicha tamomlagan. M.Masharfiy, O.M.Holmuhamedov, Quvoch Usmonovlar unga rahbarlik qilgan. Istedod egasi B.Rasulov skrepka uchun yaratilgan klassik nodir asarlarining mohir ijrochisidir. U I Respublika tanlovining sohibi (1971). O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan san`at arbobi (1987). Toshkent operetta teatri orkestrining (1979) bosh dirijyori sifatida u o`zbek musiqachiligida yangi janr targ`ibotiga katta hissa qo`shmoqda.

Abduhoshim Ismoilov Toshkent konservatoriyasini bitirib chiqqan sozanda–ijrochilar orasida g`ijjakchi. O`zbekiston xalq artisti, O`zbekiston televidenie va radiosining maqomchilar ansamblining badiiy rahbari, xalq merosi maqom ijrochiligining yirik namoyondalaridandir. A.Ismoilov hozirda yetuk sozanda va bastakor sifatida respublikada ko`pchilikka tanilgan.

Urma zarbli cholg`ular orasida eng keng tarqalgani doiradir. 50-60-yillarda O`zbekiston va Tojikistonda mazkur cholg`uga bo`lgan qiziqish yanada oshdi.

A.Liviyev, A.Kamolxo`jayev, O.Baroyev, B.Yo`ldoshiv, T.Ashrabxo`jayev, I.Ikromovlar fakultetni tamomlagan doirachilar orasida eng mashhurlari hisoblanishadi. Ular ijrosida bu qadimiy musiqa cholg`usining butun emotsional va texnik imkoniyatlari yorqin va har tomonlama namoyish etilmoqda.

Odil Kamolxo`jayev konservatoriyada taxsil olgan doirachilardan biri- A.Liviyevning shogirdi (1935-yilda tug`ilgan). Konservatoriyani 1967-yilda tugatgan. O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist (1980). M.Qori-yoqubov nomidagi O`zbekiston Davlat flarmoniyasi konsert birlashmasi va O`zbekkonsertda doirachi sozanda bo`lib xizmat qiladi.

Xalq cholg`u ijrochili fakultetida bir qator taniqli tanbur (H.Rajabov, M.Abdukarimov kabi) va dutor (B.Rahimjonov, A.Nazarov, A.Hoshimov, R.Hojiyeva) ijrochilari ham yetishib chiqdi.

Shunda qilib Toshkent Davlat konservatoriyasining xalq cholg`ulari fakulteti o`zbek xalq cholg`ulari rang- barangligini saqlab, uni keng targ`ib qilib yuqori malakali yosh ijrochilarni tarbiyalab o`zbek xalq cholg`ulari professional maktablarini tshkil etib, ijrochilik san`tining keyingi istiqboli uchun mustahkam zamin yaratdi.

X U L O S A

O`zbek xalq cholg`ularida 1917-1945 yillarda musiqa ijrochilik san`ati o`z taraqqiyotining ko`p asrlik an`analarini meros qilib oldi. Ularning ildizlari qadim-qadim davrlarga borib tarqaladi. 1933-yilda ayratam shahristoni arxeologik

qazilmalarida topilgan materiallar, qadimiy adabiy manbalar o`zidan ilgari turli musiqa asboplari bo`lganligidan dalolat beradi.

Eramiz boshlarida turli tuman xalq cholg`ularidan kundalik turmushda, ovda, saroy hayotida, madaniy bayram marosimlarda, xalq sayillarida foydalanilgan. Xalq cholg`ulari asrlar davomida insonlarning ma`naviy ehtiyojlarini qondirib, tadrijiy ravishda rivojlandi va takomillashdi.

Moddiy ma`daniyat yodgorliklari, tasviriy san`at asarlari, jumladan, devordagi rasmlar, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asrdayoq ikki turdagi xalq cholg`ulari ansambili mavjud bo`lgani haqida ma`lumot beradi. Ulardan biri (damli) va urma zarbli cholg`ulardan, ikkinchisi torli va mizrobli (chertma) cholg`ulardan iborat edi. Bulardan tashqari, nay, surnay, chang, tanbur, ut va g`ijjak kabi cholg`ularda yakka navoz ijrochilik ham mavjud ekanligi ma`lum.

Repertuar esa xalq ohanglari va cholg`uchilat bastalagan asarlardan tuzilgan. Ijrochilik xalq og`zaki ijodi va klassik adabiyot bilan uzviy aloqada rivojlangan (musiqani yozib olish usuli ancha keyin paydo bo`lgan). O`rta asrlarda xalq musiqa ijodining og`zaki an`analari keng tarqalgan bo`lib, ular cholg`u musiqasining har xil janrlarini qamrab olgan edi. Toy-tomosha, bayramlar (navro`z, hosil bayrami) xalq og`zaki ijodining an`anaviy intonasion (talaffuz) tuzilishi bilan bog`liq maqom turkumlari singari rang-barang musiqa san`ati turlari ulkan madaniy meros sifatida avloddan-avlodga o`tib kelgan. Chunonchi, yurish hamda taqlikda asoslangan uyg`un, "Harbiy musiqa" shakllandi. U harbiy ko`riklarda, turli marosim va tantanalarda, shuningdek saroy a`yonlarini huzurida ijro etilgan.

An`anaviy ijrochilik san`ati bugungu kunda hali ham tenglovchilarning e`tiborini qozonmoqda. Shu bois musiqa madaniyatining ijtimoiy hayot bilan bevosita aloqadorligini nazarda tutgan holda, uni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Musiqa san'ati ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi va mehnat jarayoni bilan uzviy bog'langan; bunda cholg'ular keng qo'llanilgan. Masalan, "Navro'z" tantanalarida cholg'ular tanbur, dutor, nay, chang, rubob, doira (daf, childirma) singari cholg'ularida ajoyib kuy va qo'shiqlari ijro etishgani;
2. Eng qadimgi xalq og'zaki musiqiy she'riy ijodiyotining shakllanishi ham xalq cholg'ulari taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgani;
3. O'rta asrlarda xalq cholg'ulari, turlarining paydo bo'lishi va qo'llanilishi–jamiyat taraqqiyotida yuksalishining samarali bo'lganligi;
4. XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi xalq cholg'ularida ijrochilik san'atining rivojlanishi yangi ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda Ovro'pa madaniyati ta'siri bilan bog'liqligi;
5. 1917-yilgi to'ntarishdan keyingi davrda ijrochilik san'atining rivojlanishi haqida mulohazalar.

Shunday qilib o'zbek xalq cholg'ularining paydo bo'lishi va takomillashishining boy tarixi bilan bog'liq bilimlar yosh ijrochilarga yakkanavoz ansambl ijrochiligida ifoda va ijrochilik texnikasi imkoniyati taraqqiyoti qonuniyatlarini ochishga yordam beradi. Shular qatori risola bo'lajak mutaxassisni mashhur xalq cholg'ulari – ijrochilik san'ati ustalarining pedagogik va ijrochilik prinsiplari bilan, shuningdek, jumhuriyat bastakorlarining o'zbek xalq cholg'ulari uchun yaratgan musiqiy asarlari bilan yaqindan tanishishlariga ko'maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”. I.A.Karimov. Ma’naviyat nashriyoti-2008 yil-20 b.
2. “O`zbek xalq musiqasi”. Yunus Rajabiy 2-3 tomlar.
3. “Sozlar sadosi”. S.Jumayev. Toshkent-2001 yil 38.b
4. “Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti”. R.Tursunov. Toshkent-2002 yil 33. b
5. “Maqomot”. O.Matyoqubov. Toshkent -2004 yil 36. b
6. M.A.Nurmatova “Musiqqa o`qitish metodikasi va maktab repertuari” fani bo`yicha ma`ruzalar matni. Ur. 2007 yil 29 b.
7. G.Sharipova “Musiqqa o`qitish metodikasi” ma`ruzalar matni. Toshkent-2000 yil 28 b.
8. D.Omonullayev, H.Nurmatov, Q.Mamirov va boshqalar. “Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standartlari va o`quv dasturi”. T.2005
9. D.Omonullayev, Y.Botirov. Davlat ta`lim standartiga “Sharq musiqqa madaniyati”. Ta`limning maqsad va vazifalari.
10. Sh. Janaydarov, X. Nurmatov Cholg`uchilar ansambli Toshkent-2002 y.98. b
11. X. Nurmatov, O. Nazarov, Sh. Janaydarov–Cholg`uchilar ansambli. Bilim nashriyoti. 47 b 2008y
12. R. Xamzaqulov rubob taronalari Samarqand 2003 y 76 b
13. X. Nurmatov Qashqar rubobi. Toshkent 2003 y 88 b
- 14.R. Qosimov An`anaviy rubob ijrochiligi.O`zbekiston 2000y 90b
- 15.R. Boqijonov. Dutorchilar ansambli. Toshkent 2002 y. 77 b
- 16.O.Fayziyev,B.Umrzoqov-Rubob taronalari,G.Gulom nashriyoti T-2003.66 b.
- 17.O.Fayziyev, O`.Mirzayev-Rubob navolari. Toshkent-2000y. 56 b
- 18.S. Jumayev Navruzi ajam Toshkent 2003 y 55 b.

19. Oroipov Z. SHarq musiqiy manbaashunosligi () “Fan va texnologiya” T.,
2008. – 160 bet.
20. www: Ziyonet. Uz
21. www: edu.uz
22. www: tdpu.uz.

“Musiqqa ta’lim yo’nalishi” bitiruvchi kurs talabasi
Safarova Dilbarning “Musiqqa mashg’ulotlarida o’zbek xalq cholg’ulari
tarixini o’rganish” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga
Ilmiy rahbar xulosasi

Umumta’lim maktablarining “Musiqqa madaniyati” darslarini o’qitishdan ko’zlanadigan asosiy maqsad o’quvchilarga ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr maxsulini og’zaki va yozma shakllarda to’g’ri, ravon ifodalash ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilmog’i lozim. Yosh avlodni tarbiyalashda o’z ona tilida aniq, tushunarli, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so’zlashga musiqqa savodxonligini puxta bilishga, xush ovozda qo’shiq kuylay olishga, milliy cholg’u asboblarda ijro qila olishga o’rgatish masalasi asosiy o’rinda turadi. O’quvchilarni savodli, o’z fikrini to’g’ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega, mumtoz va hozirgi zamonaviy qo’shiqlarni tahlil qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash yo’llari ushbu ishda asoslab berilgan. Chunki bolalarning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o’qitib bo’lmasligi, o’quvchilarning real o’quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, kuy va qo’shiq topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilash lozimligi tahlil qilinib, uning yo’llari ko’rsatib o’tilgan.

Ashula, musiqqa, raqs-o’zbek milliy musiqqa san’atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog’liq holda paydo bo’lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san’at turlaridan biridir. Havaskorlik ashula va ras ansamblining kelgusi istiqboli mutaxassis kadrlar tayyorlashni ilmiy-amaliy tadqiqotlar asosida takomillashtirish muammosi bilan bog’liq bo’lib, u milliy ta’limni to’liq isloh qilish dasturiga kiradi.

Talaba Safarova Dilbarning “Musiqqa mashg’ulotlarida o’zbek xalq cholg’ulari tarixini o’rganish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi barcha talabalarga javob beradi va uni davlat attestatsiyasi komissiyasiga ximoya qilish uchun tavsiya etamiz.

Ilmiy rahbar:

Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining

**“Musiqqa ta’lim yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi
Safarova Dilbarning “Musiqqa mashg’ulotlarida o`zbek xalq cholg’ulari
tarixini o`rganish” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Mamlakatimizda ma’naviy-madaniy jabhalarda amalgam oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida musiqqa san’atiga e’tibor, davlat siyosati darajasida ko’tarildi.

“... bugungi kunda musiqqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko’proq ta’sir ko’rsatmoqda”.

Bitiruvchi kurs talabasi Safarova Dilbarning “Musiqqa mashg’ulotlarida o`zbek xalq cholg’ulari tarixini o`rganish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining rahbari ko’rsatma bergan barcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzuning qirralarini yoritgan. Mavzu kirish qism, II- bob, rejalar va xulosa qismlardan iborat.

“Mavzuning maqsadi va vazifalari”, “Uslubiy ko’rsatmalar”, “O`zbek xalq musiqasi janrlari”, “Mehnat qo`shiqqlari”, “Marosim qo`shiqqlari”, “O`zbek musiqasida maxalliy musiqiy uslublar”, “O`zbek cholg’u asboblarida ijro etish qoidalari”, “Xalq qo`shiqchiligi ijrochiligini tarbiyalashning usullari” kabi mavzular ijobiy yoritilgan.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi

**Buxoro davlat universiteti Pedagogika fakultetining
“Musiqqa ta’lim yo`nalishi” bitiruvchi kurs talabasi**

**Safarova Dilbarning “Musiqqa mashg’ulotlarida o’zbek xalq cholg’ulari
tarixini o’rganish” mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga**

T A Q R I Z

Mamlakatimizda ma’naviy-madaniy jabhalarda amalgam oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida musiqa san’atiga e’tibor, davlat siyosati darajasida ko’tarildi.

“... bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko’proq ta’sir ko’rsatmoqda”. Yosh avlodni tarbiyalashda o’z ona tilida aniq, tushunarli, tushunarli, ta’sirchan, chiroyli so’zlashga musiqa savodxonligini puxta bilishga, xush ovozda qo’shiq kuylay olishga, milliy cholg’u asboblarda ijro qila olishga o’rgatish masalasi asosiy o’rinda turadi. O’quvchilarni savodli, o’z fikrini to’g’ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega, mumtoz va hozirgi zamonaviy qo’shiqlarni tahlil qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalash yo’llari ushbu ishda asoslab berilgan. Chunki bolalarning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o’qitib bo’lmasligi, o’quvchilarning real o’quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, kuy va qo’shiq topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilash lozimligi tahlil qilinib, uning yo’llari ko’rsatib o’tilgan.

Bitiruvchi kurs talabasi Safarova Dilbarning “Musiqqa mashg’ulotlarida o’zbek xalq cholg’ulari tarixini o’rganish” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining rahbari ko’rsatma bergan barcha adabiyotlardan foydalangan holda mavzuning qirralarini yoritgan.

Taqrizchi:

